

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'KIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
«OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI» FAKULTETI

«OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI» KAFEDRASI

“Go'sht-sut mahsulotlari texnologiyasi asoslari” fani

«Smenada 2500 kg yog'sizlantirilgan tvorog ishlab chiqarish texnologik liniyasini
tashkil etish» mavzusidagi kurs loyiha ishining

TUSHUNTIRISH XATI

«Oziq-ovqat xavfsizligi»
kafedrasi mudiri dots. Choriyev A.J.

Kurs ishining rahbari: k.o'q. Ismoilov T.A.

Kurs ishini bajaruvchi: 35-11 guruhi talabasi
Jo'rayev J.

MUNDARIJA

1.	Kirish	-3
2.	Xom ashyo tavsifi	-5
3.	Texnologik sxemani tanlash va asoslash	-8
4.	Mahsulot hisobi	-22
5.	Jihoz tanlash	-23
6.	Texnik – kimyoviy nazorat	-24
7.	Tayyor mahsulot sifatiga qo'yiladigan talablar	-26
8.	Asosiy uskunaning hisobi	-35
9.	Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish	-37
10.	Atrof-muhit muhofazasi	-44
11.	Mehnat muhofazasi	-47
12.	Fuqaro muhofazasi	-52
13.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	-60

KIRISH

Sut – juda qimmatli oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi.

U dispers muhit (plazma, qaysikim bunda mineral tuz va sut qandi erigan holda bo'ladi), kolloid faza (oqsil va tuzlar) va kichik dispers faza (sut yog'i) dan tashkil topgan.

Sut tarkibida o'rtacha 3,8 % sut yog'i; 4,7 % sut qandi; 3,3 % oqsil; 0,7 % mineral moddalar va 87,5 % suv uchraydi.

Bolalarning sog'lom bo'lishi, ularning aqliy va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun sut va sut mahsulotlarining ahamiyati ulkan ekanligini vrachlar va olimlar ilmiy jihatdan isbotlaganlar. Shuning uchun yosh avlodni bunday mahsulotlar bilan ta'minlash ularning kuchli va aqlan sog'lom bo'lib o'sib, mamlakatimiz taraqqiyotiga ishtirok etishiga qaratilgan muhim vosita deb qarash mumkin.

Sut juda qadimdan ma'lum. Uning xilma-xil turlari va assortimentlari mavjud. Hozirgi vaqtda sut sanoati xalq xo'jaligida oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish tarmoqlari orasida eng muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi.

Sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining paydo bo'lishi va texnologik asoslarning ilmiy jihatdan taraqqiyotiga bog'lik. Sut va sut mahsulotlari texnologiyasi fani bir qator fanlar bilan uzviy bog'langandir. Bular kimyo, mikrobiologiya, biokimyo, sut kimyosi va fizikasi. Sut va sut mahsulotlari ishini A.A.Kalantar va N.V.Vereshaginlar ilmiy jihatdan asoslashdi. S.A.Korolev, A.F.Voytkevich, V.M.Bogdanov, A.M.Skorodumova, N.S.Korolevalar sut mikrobiioiyasi oblastida tekshirishlar olib borishdi. S.M.Kochergin, M.M.Kazansqiy, A.P.Belousov, A.D.Grishenkolar sariyog' ishlab chiqarishda, S.V.Parashuk, A.N.Korolev, D.A.Granikov, A.I.Chebotaryov, Z.X.Dilyananlar qishloq mahsulotlari ishlab chiqarishda, M.S.Kovalenqo, S.F.Kivenqo, V.V.Straxov va boshqalar sut konservalari ishlab chiqarishda ilmiy tekshirishlar olib borishdi.

Sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati quyidagi asosiy tarmoqlarga ega: sut mahsulotlari, pishloq mahsulotlari, sariyog' va sut konservalari ishlab chiqarish.

Sut mahsulotlari ishlab chiqarish tarmog'i aholini turli tuman pasterlangan va sterillangan sut va qaymoq, sut-achitqi ichimliklari, tvorog va tvorogli mahsulot, smetana bilan ta'minlaydi. Birinchi shahar sut ishlab chiqarish korxonasini 1910 yilda Rossiyada A.V.Chichkin qurban. A.V.Chichkin Moskva va Rossiyaning boshqa shaharlarini birinchi bo'lib sut bilan ta'minlashni yo'lga qo'ygan.

Sut ishlab chiqarish korxonasini qurishdan oldin A.V.Chichkin yordamchisi bo'lgan professor A.A.Popovni Evropadagi eng yaxshi sut zavodlariga yuboradi. A.A.Popov Myunxen, Tsjurix va Londondagi eng yirik uchta sut ishlab chiqarish korxonalarida bo'ladi. U safari davomida eng yaxshi deb hisoblangan bu sut ishlab chiqarish korxonalarining rejalaridan nusxa kuchiradi va sut ishlab chiqarish ishlarida tajriba ortiradi.

Professor A.A.Popov tomonidan loyihalashtirilgan va qurilgan sut ishlab chiqarish korxonasi o'zining tozaligi, shinamligi, tabiiy yorug'lik tushishi, ishlab chiqarish xonalarining texnologik jihatidan joylashishi, zamonaviy texnikasi va ishlab chiqarish quvvati bilan Evropadagi boshqa sut ishlab chiqarish korxonadan farqlanardi. O'sha paytda Evropaning sut ishlab chiqarish korxonalarida kunida 10-30 tonna sut va sut mahsulotlari ishlab chiqilsa, A.A.Popov qurban korxonada 100-150 tonna sut qayta ishlab chiqarilar edi. Keyingi yillarda sut va sut mahsulotlarining yangi turlari va assortimentlarini ishlab chiqishga e'tibor berilmoqda. Buning uchun esa sut ishlab chiqarish korxonalarini rekonstruktsiyalash, ularni yangi takomillashgan texnika va texnologiyalar bilan boyitish kerak bo'ladi.

Sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirish uchun yangi fizik usullarni qo'llash yo'li bilan amalgalashdi.

Hozirgi paytda ko'pgina mamlakatlarda yangi texnologik jarayonlar, sut mahsulotlarini infraqizil nurlari va yuqori chastotali elektr toki yordamida pasterlash ishlari yo'lga qo'yilgan.

XOM ASHYO TAVSIFI

Sutning asosiy fizik-kimyoviy holati

Yangi sog'ilgan sut bir vaqtning o'zida kislota va ishqorli reaktsiyaga ega bo'ladi.

Sutning kislotaliligi undagi tuz, oqsil, uglekislota, limon kislotasi va boshqalarga bog'lik bo'ladi. Sutda sut kislotasi bakteriyalar ta'sirida sut qandining bijg'ishi natijasida to'planadi. Kislotalilik Terner gradusi (0T) bilan belgilanadi va 100 ml sutni neytrallashda ketgan ishqor eritmasining millilitrlar soni bilan aniqlanadi. Kislotaligiga qarab sutning yangiligiga baho beriladi. Yangi sog'ilgan sutning kislotaliligi $16-18^0T$ bo'lishi kerak.

Sut sig'imi - sut sifatini xarakterlovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. U bir xil hajmda suv massasidan sut massasining qancha miqdorda og'irligini ko'rsatadi. Sutning o'rtacha zichligi 1030 kg/m^3 ga teng. Sut zichligi sut tarkibidagi quruq moddalar (yog', qand, oqsil) miqdoriga bog'lik. Sutdagagi quruq moddalar miqdorining ko'payishi bilan uning zichligi oshadi.

Sutdan qaymojni ajratish yoki unga qo'shishda sut zichligi oshadi, suv qo'shganda esa zichlik pasayadi.

Sutning qaynash harorati suvgaga nisbatan sal yuqori – $100,2^0S$ ga teng. Isitish haroratiga qarab sutning fizik va biologik holati o'zgaradi. Ya'ni, sut $50-60^0S$ haroratgacha isitilganda, uning ustki qismida, asosan, yog' va oqsildan iborat qatlam paydo bo'ladi; ba'zi bir fermentlar faoliyati o'zgara boshlaydi. 60^0S harorat ta'siriga chidamsiz bo'lgan sut oqsillari esa cho'kmaga tushadi.

Sutni qabul qilish

Sutning tarkibiy qismlarini inson foydalanishi uchun to'liq saqlash va undan yuqori sifatli sut mahsulotlari ishlab chiqarish maqsadida uning sifatini ko'tarish kerak bo'ladi.

Sutning sifati uni to'g'ri qabul qilib olish va unga dastlabki ishlov berishga bog'liq.

Sifati yuqori bo'lgan qaynatilmagan sutdan yuqori navli sut mahsulotlari

ishlab chiqarish mumkin. Sifatli qaynatilmagan sut deb, sutning qayta ishlashga layoqatliliginin aniqlovchi kimyoviy tarkibi, fizik-kimyoviy va mikrobiologik ko'rsatkichlar majmuasiga aytiladi.

Sut qabul qilib olingach, unga ishlov beriladi. Sutga ishlov berish quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi: xom ashyni qabul qilish, tozalash, issiqlik ishlov berish, sovutish, qadoqlash va ma'lum muddatda saqlash.

Qabul qilingan sutning standart talabiga javob beruvchi kimyoviy ko'rsatkichlari va miqdori hisobga olinadi. Sutni qabul qilishda standart talablariga rioya qilinadi. «Sigir suti, sotib olish paytidagi talablar» standartiga ko'ra sut qabul qilib olinadi. Bu standart talabiga ko'ra sigir suti sog'lom sigirdan sog'ib olingan, sog'gandan so'ng 2 soat orasida 2^0S haroratgacha sovutilib filtrlangan bo'lishi kerak. Sutni qabul qilish vaqtida uning harorati 10^0S dan oshmagan bo'lishi lozim.

Qabul qilib olingan sut tarkibiga tushib qolgan chiqindilardan tozalash maqsadida filtrlanadi. Sutni tozalash uchun har xil filtrlardan foydalanish mumkin: paxtali fil'tr, disklar, doka, sintetik materiallar, metalli elak va boshqalar. Mikroorganizmlar faoliyatini to'xtatish maqsadida tozalangan sut tezda sovutiladi. Kichik korxonalarda sutni sovutish uchun suvdan foydalaniladi. Keyingi paytda sutni sovutish uchun plastinkali sovutgichlar qo'llaniladi. Kislotaliligi $19-20^0T$ bo'lgan sut ma'lum muddatda (6 soat) saqlanishi mumkin. U holda bunday sutga issiqlik ishlovi beriladi. Sutga issiqlik ishlov berish 76^0S haroratda 15-20 sekund davomida olib boriladi. Issiqlik ishlov berilgach, sut plastinkali sovutgich jihozida 4-6 0S haroratgacha tezda sovutiladi.

Sovutilgan va harorati 10^0S dan oshmagan sut yirik sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalariga flyagalar yoki tsisternalarda jo'natiladi.

Tashqi ko'rinishi va konsistentsiyasi jihatidan sut bir jinsli suyuqlik, rangi sarg'ishroq-oq, cho'kmasiz, zichligi 1027 kg/m^3 ga teng bo'lishi kerak.

Fizik-kimyoviy va mikrobiologik ko'rsatkichlariga qarab sut uch navga: oliy, birinchi va ikkinchi navlarga bo'linadi.

Sutning bu ko'rsatkichlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Sutning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlar	Navlar uchun miqdori		
	Oliy	1	2
Kislotaligi, ⁰ T	16-18	16-18	16-20
Etalon buyicha tozaliligi	1	1	2
Bakterial urug'langanligi, mg/sm ³	300 gacha	300 dan 500 gacha	500 dan 4000 gacha
Somatik hujayralar miqdori, mg/sm ³	1000	1000	1000

Sutni qabul qilish vaqtida har bir partiyadan namuna olinadi va unga organoleptik jihatdan baho beriladi. Bundan tashqari, sutning harorati, zichligi, tarkibidagi yog' miqdori va kislotaliligi aniqlanadi.

Sutni tozalash sharoiti va usullari

Qabul qilingan sut tabiiy chiqindilar (mikroorganizmlar) va mexanik iflosliklardan yo'qotish maqsadida tozalanadi.

Bunday tozalash og'irlik kuchi yoki bosim va markazdan qochma kuchlar yordamida harakatlanuvchi separator - sut tozalash jihozlarida olib boriladi. Filtrlash paytida sut metall va matodan tayyorlangan filtr to'siqlarining qarshiligiga dosh berishi kerak. Suyuqlik filtr to'siqlaridan o'tgach, bu to'siqlarda sut tarkibida bo'lgan chiqindilar ushlab qolinadi. SHuning uchun har 15-20 minutdan so'ng filtrdagi chiqindilar ajratib olinadi. Sutni mexanik chiqindilardan tozalash maqsadida bosim ostida ishlaydigan sut tozalash uskunalari qo'llaniladi. Sutning qanchalik effektli tozalanishi shu bosimga bog'lik bo'ladi.

Sut tozalash jihoziga $2 \cdot 10^5$ Pa bosimda kelib tushadi.

TEXNOLOGIK SXEMANI TANLASH VA BAYONI

Nordon sut ichimliklari umumiy texnologiyasi

Barcha nordon sut ichimliklarini ishlab chiqarishda tayyorlangan sutni achitqilar yordamida ivitish va kerak bo'lsa etiltirish umumiy jarayon hisoblanadi.

Alovida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xom tomonlari ba'zi operatsiyalarning harorat rejilari, qo'llaniladigan achitqining har xil tarkibdaligi va qo'shimchalar qo'shish bilan belgilanadi.

Uzoq vaqt barcha nordon sut ichimliklari termostat usulida ishlab chiqarilgan. Bu usul qo'llanilganda achitqi solingan sut mayda taraga solinib termostat xonasida har bir mahsulot uchun mo'ljallangan optimal haroratda saqlanadi. Mahsulot (quyqa) laxta hosil bo'lgach sovutish xonasiga yuborilib sovutiladi va kerak bo'sa etiltirish uchun birmuncha vaqt ushlab turiladi.

Rezervuar usuliga muvofiq ivitish, kerak bo'lsa mahsulotni etiltirish rezervuarlarda amalga oshiriladi. Bu ishlab chiqarish maydoni va mehnat sarflarini qisqartirish imkonini beradi.

Parhezli nordon sut ichimliklarini ishlab chiqarish uchun yuboriladigan sut navi ikkinchidan past, kislotaliligi 19°C baland bo'lmasligi, qaymoq kislotaliligi esa 24°C dan yuqori bo'lmasligi lozim.

Me'yorashtirilgan sut $85\text{--}87^{\circ}\text{S}$ haroratda ushlab turib, mikroflora to'laroq yo'qotilishi, fermentlar parchalanishi, achitqi mikroflorasi yaxshiroq rivojlanishi, mahsulot konsistensiyasi sifatli bo'lishi uchun pasterlanadi. Bu sharoitda zardob oqsillari denaturatsiyalanadi, natijada kazein gidratatsion sifatlari oshadi va zardobni yaxshi ushlab turadigan zich laxta hosil qilish qobiliyati kuchayadi.

Denaturatsiyalangan zardob oqsillarining ishtirok etishi sut laxtasi strukturasi hosil bo'lishiga yordam qiladi.

Birjinsli va zich, aralashtirilgach esa ancha yopishqoq konsistensiyali, qaymog'i ajralib qolishi oldini olish va zardobni o'zida ushlab tura oladigan sifatli mahsulot olish uchun, issiqlik bilan ishlov berish odatda, sutni $55\text{--}70^{\circ}\text{S}$ haroratda

va 12,5 – 17,5 Mpa bosim ostida gomogenlash bilan birga olib boriladi. Nordon sut ichimliklari ishlab chiqarishda gomogenlash muhim jarayonlardan biri, chunki uzoq vaqt ivitish va sovutish operatsiyalarida qaymoq ajralib qolishi muqarrar.

So'ng sut optimal ivitish haroratigacha sovutiladi va unga yot mikroflora rivojlanishi olodini olish uchun darxol achitqi solinadi.

Nordon sut mahsulotlari ishlab chiqarishda sut kislotali streptokkoklar qo'llaniladi: optimal rivojlanish harorati 30–35 °S bo'lgan mezofil (*Str. lactis*) va optimal rivojlanish harorati 40–45 °S bo'lgan termofil (*Str. termophilus*).

Laxta smetanasimon konsistentsiya hosil qilishi uchun achitqiga, optimal tashqari rivojlanish harorati 30 °S bo'lgan, qaymoq steptokkokki (*Str. cremoris*) qo'shiladi. Ba'zi achitqilar tarkibiga aromat hosil qiluvchi steptokkoklar qo'shiladi (*Str. citrovorus*, *Str. paracitrovorus*, *Str. diacetilactis*, *S. lactis* subsp. *acetoinicus*, *S. lactis* subso. *diacetilactis*, enterokkoklar). Ular o'z hayot faoliyati davomida sut kislotasidan mahsulotga (spetsifik) xidiga, konsistentsiyasiga o'ziga xos xossalari beruvchi, vitaminlar uchuvchi kislotalar, karbonad angidrid gazi, spirtlar, efirlar, diatsetil, aminokislotalar va uglerod tarkibli (uglerodsoderjashi) polimerov biosintez qilish imkonini beradi.

Bu achitqilar kombinatsiyasi yordamida nordon sut mahsulotiga ma'lum sifatlar beriladi. Ularning rivojlanish optimal harorati 25–30 °S dir. Bu barcha mikroorganizmlar ichimlik kislotalilagini 80–120 °T gacha oshirishi mumkin.

Yanada balandroq kislotalik hosil qiluvchilar sut kislotali tayoqchalar hisoblanadilar.

Ulardan optimal rivojlanish harorati 40–45 °S bo'lgan va ivitish kislotaliligi 200 – 300 °T ni tashkil etadigan bolgar (*Bact. bulgaricum*) va atsidofil (*Bact. acidophilum*) tayoqchalari achitqi ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.


Ba'zi nordon sut ichimliklari achitqilar tarkibiga spirtli bijg'ishni ta'minlaydigan sut drojjalari qo'shiladi. Natijada ichimliklar (o'tkirroq) ozgina achchiqroq ta'mli va ko'piruvchi konsistentsiyali xossalarga ega bo'ladi.

Nordon sut ichimliklari sifati foydalaniladigan achitqi sifatidan ko'p jixatdan bog'liqidir. Tomizg'i bir jinsli, zinch konsistentsiyali, yoqimli xid va ta'mli, optimal

kislotalilikka ega. Streptokokklar – 80°T gacha, tayoqcha ko'rinishidagilar – 100°T gacha bo'lishi lozim. Kislotalilik yuqori bo'lsa achitqi faolligi pasayadi, natijada sutning ivish davri uzayadi va tayyor mahsulot sifati pasayadi.

Qo'shiladigan achitqi miqdori uning faolligiga qarab 1 – 5% ni tashkil etadi.


Nordon sut ishlab chiqarishning texnologik sxemasi



Sut tomizg'i solish haroratida nozik, bir tekis, zinch laxta hosil bo'lguncha, zardob ajralib chiqishi alomatlarisiz va kislotaliligi tayyor mahsulotnikidan biroz pastroq darajaga etguncha ivitiladi.

Ivitish tugagach mahsulot darxol sovutiladi. Termostat usuli qo'llanilganda, u $6 - 8^{\circ}\text{S}$ haroratgacha sovutish uchun sovuq xonaga yuboriladi. Mahsulotni tashishda, nozik laxta buzilmasligi uchun extiyotkorlik lozim. Rezervuar usulida

hosil qilingan laxta, avaylab aralashtirilib, rezervuar devor oralig'iga yaxna suv berib sovutiladi. Bu holda hosil bo'lган laxta strukturasi bir oz o'zgaradi.



1-rasm. Termostat usulida sut-achitqi mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologik sxemasi.

1 – sutni saqlash uchun idish, 2 – sut uchun nasos, 3 – bak, 4 – separator – sut tozalagich, 5 – plastinkali pasterlash apparati, 6 – pasterlangan sutni saqlashga mo'ljallangan idish, 7 – gomogenizator, 8 – sutni ivitish uchun idish, 9 – sutni quyish uchun jihoz, 10 – termostat kamerasi, 11 –sovutgich kamerasi, 12 – tayyor mahsulotni saqlash uchun kamera.

Harorat pasaygan sari sut kislotali jarayon kuchsizlanadi, sekin kechadi va har bir mahsulot uchun asta – sekin etadi, $8 - 10^{\circ}\text{S}$ haroratda esa to'xtaydi. SHuningdek oqsillar bo'kish jarayoni kechadi, natijada erkin holdagi namlik kamayadi va bog'lanib quyqa zichlanadi.

Bijg'ish jarayoni biokimyosi

Nordon sut mahsulotlari ivitish xarakteri bo'yicha shartli ravishda ikki guruhga bo'linadi: faqat sut kislotali bijg'ish natijasida olingan (prostokvasha, atsedofilli sut, yogurt, qatiq va boshqalar) va aralash – sut kislotali va spirtli (kefir, qimiz va boshqalar).

Sut kislotali bijg'ishda, sut kislotali bakteriyalar ajratib chikaradigan laktaza fermenti sut qantiga ta'sir ko'rsatadi. Bijg'ishning birinchi bosqichida laktoza molekulalari glyukoza va galaktoza monosaxaridlariga parchalanadi.

Ferment yordamida glyukoza va galaktozadan avval pirouzum kislotasi hosil bo'ladi so'ngra, u Kodechidraza fermenti ta'sirida sut kislotasigacha tiklanadi.

Sut kislotali bijg'ish bilan bir vaqtda kechadigan jarayonlar natijasida laktozadan ba'zi uchuvchan kislotalar, korbanad gazi va boshqalar hosil bo'ladi.

Aromat hosil qiluvchi bakteriyalar ta'sirida sut qandi mahsulotga (spetsifik) o'ziga xos xid beruvchi diatsetil hosil qilib parchalanadi.

Sut kislotali bijg'ish davomida sut kislotasi, diatsetil va boshqa moddalar hosil bo'lishiga sut tarkibidagi laktozaning 20 – 25% sarf bo'ladi. Uning qolgan qismi inson organizmiga tushib ichak sut kislotali mikroflorasi hayot kechirishiga sarflanadi.


Aralash bijg'itish jarayonida laktozaga sut kislotali bakteriyalar va sut drojjalari fermentlari ta'sir etadi. Sut qanti avval glyukoza va galaktozaga parchalanadi, o'z navbatida ulardan pirouzum kislotasi hosil bo'ladi. Sut kislotali bakteriyalar fermentlari ta'sirida pirouzum kislotasining bir qismi sut kislotasiga aylanadi, boshqa qismi sut kislotasiga aylanadi, boshqa qismi esa, sut drojjalari hujayralari tarkibidagi karbonsilaza fermenti ta'sirida sirka aldegidi va karbonat angidrid gaziga parchalanadi:



Sirka aldegidi etil spirtiga aylanadi:



Spirtli bijg'ishning umumiyo ko'rinishini quyidagicha ifodalash mumkin:



Sut kislotali va aralash bijg'ish jarayonida hosil bo'ladigan sut kislotasi sutning kaltsiy fosfat kazeinat kompleksi bilan o'zaro ta'sirlashadi: N – ionlari yordamida uning manfiy zaryadini kamaytirib (neytrallab) kaltsiyni ajratib oladi. Natijada kazein bo'laklari barqarorligini yo'qotadi, birikadi va koagulyatsiyalanadi (quyqa hosil bo'ladi).

Nordon sut mahsulotlari biokimyoviy jarayonlar natijasida sutga nisbatan ancha engil va tez xazm bo'ladi. Masalan, sut organizmda 3 soatda 44% xazm bo'lsa, prostaktasha esa – 95,5%. Bu sut oqsilining oddiy, oson xazm bo'ladigan moddalar hosil qilib qisman peptonizatsiyalanishi natijasidir.

Hosil bo'ladigan sut kislotasi, karbonad angidrid gazi, spirt xazm jarayonini kam quvvat sarf qiladigan, tezlashtiradigan shira va fermentlarni intensiv ajralib chiqishini ta'minlaydilar.

Tvorogning ozuqaviy va biologik qiymati

Tvorog – oqsilli nordon sut mahsuloti bo'lib, uni me'yorlangan yoki yog'sizlantirilgan, pasterlangan sutni ivitish va keyinchalik laxtadan zardobning bir qismini ajratib olish, hamda oqsilli massasini presslash yo'li bilan tayyorlanadi. Korxonaga kislotaliligi oshib kelgan pasterlanmagan sutdan tayyorlanadigan tvorogni iste'mol qilishdan avval issiq ishlovidan o'tkazish lozim (sirniki, vareniki, eritilgan sir, chuchvara ishlab chiqarish).

Yog'ning massa ulushiga qarab tvorog uch turga bo'linadi: yog'li, yarim yog'li va yog'siz.

Tvorog ta'mi va xidi toza nordon sut mahsulotlariga xos bo'ladi. Konsistensiyasi nozik, birjinsli: birinchi navli yog'li tvorog ozgina surkaluvchan bo'lishi mumkin, yog'siz tvorog–sochilib turgan, biroz zardob ajrab qolgan bo'ladi. Rangi biroz sarg'imtir oq (kremoviy ottenok) rangda bo'ladi. Birinchi navli yog'li tvorog rangi biroz notekis bo'lishi mumkin.

Tvorog tarkibidagi yog' va ayniqsa to'la qiymatli oqsillar uning yuqori ozuqaviy va biologik qiymatli mahsulot ekanligini ta'minlaydi.

Metionin, lizin, xolin – aminokislotalari tarkibidagi oltingugurt tufayli tvorogdan ba'zi jigar, buyrak kasalliklari hamda aterosklerozni profilaktik davolashda foydalanish imkonini beradi. Tvorog tarkibida yurak, markaziy asab sistemasi, miyaning normal faoliyat kechirishi hamda suyak hosil bo'lishi va organizmda modda almashinushi uchun zarur bo'lgan ko'plab mineral moddalar (kaltsiy, fosfor, temir, magniy va boshqalar) bor. Ayniqsa, tvorog tarkibidagi

kaltsiy va fosfor tuzlari, organizmda oson o'zlashtirilishi bilan katta ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy usulda tvorog ishlab chiqarish texnologiyasi

Laxta hosil qilish usuliga qarab tvorog ishlab chiqarishning ikki turi mavjud: kislotali va shirdon – kislotali. Birinchi usul asosida sutni sut kislotali bakteriyalar bilan ivitib so'ngra ortiqcha zardobni qizdirib ajratish yo'li bilan kislotali oqsilni koagultsiya qilish yotadi. Bu usul bilan yog'siz va kam miqdor yog'lilikdagi tvorog tayyorlanadi, chunki laxtani qizdirilganda zardob bilan yog' ham chmqmb ketishi mumkin. Bundan tashqari bu usul anchagina nozik konsistentsiyali yog'siz tvorog ishlab chiqarish imkonini beradi.

Oqsilning kislotali koagulyatsiyalangan laxtasining fazaviy (prostronstvennaya) strukturasi mustaxkamligi pastroq bo'lib, kazein zarrachalari orasidagi bo'shroq bog'lanish natijasida shakllangan va zardobni ajratib chiqarishi sustdir.

Shuning uchun zardob ajralishini intensivlash uchun laxtani qizdirish talab etiladi.

Sutni shirdon – kislotali ivitish usulida laxta shirdon fermenti va sut kislotasining kombinatsion ta'siri tufayli shakllanadi. Shirdon fermenti ta'sirida kazein birinchi bosqichda parakazeinga aylanadi, ikkinchi bosqichda – parakazeindan laxta hosil bo'ladi. Kazein parakazeinatga o'tayotganda izoelektrik nuqtasini pH 4,6 dan 5,2 gacha o'zgartiradi. Shuning uchun, oqsilni sut kislotasi yordamida cho'ktirishdan ko'ra, shirdon fermenti yordamida cho'ktirish, ancha pastroq kislotalilikda, jadalroq kechadi. Hosil bo'lgan laxta kamroq kislotalilikka ega bo'lib, texnologik jarayon 2 – 4 soatga tezlashadi. Yirik zarrachalar oralig'ida hosil bo'ladigan kaltsiy ko'prikchalari shirdon kislotali koagulyatsiyalanganda, laxtaning mustaxkam bo'ilishini ta'minlaydi. Bunday lاختдан, kislotalikka nisbatan, zardob yaxshiroq ajralid, chunki ulardag'i oqsilning strukturasi zichlanishi jadalroq kechadi.

Shuning uchun zardob ajralishini jadallashtirish uchun laxtani qizdirish talab etilmaydi.

Shirdon – kislotali usulda yog’liq va yarim – yog’liq tvorog ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir, bunda yog’larning zardobga o’tib ketishi kamroqdir. Kaltsiy tuzlari kislotali ivitishda zardobga qo’shilib ketadi, shirdon – kislotali usulda esa laxtada saqlanib qoladi. Bu narsa ayniqsa, bolalar iste’moli uchun mo’ljallab tayyorlanadigan tvorog ishlab chiqarishda hisobga olinishi shart, chunki kaltsiy suyak hosil bo’lishi uchun zarurdir.

Xom ashyo sifatida yangi sifatli sof yoki yog’sizlantirilgan kislotaliligi 20°T yuqori bo’lmagan sutdan foydlaniladi. Sut yog’ miqdori undagi oqsil miqdorini (oqsilli titr) hisobga olgan holda me’yorlanadi. Bu aniqroq natija olish imkonini beradi.

Me’yorlangan va tozalangan sut 20–30 sek. $78\text{--}80^{\circ}\text{S}$ haroratda pasterlanadi. Pasterlash harorati laxtaning fizkimyoviy xossalari o’zlashtiradiki, o’z navbatida bu tayyor mahsulot sifatiga va miqdoriga ta’sir ko’rsatadi. Pasterlash harorati past hollarda laxta etarli darajada zich bo’lmaydi, chunki zardob oqsillari amalda, to’liq zardobga o’tib ketadi va tvorog chiqish miqdori kamayadi. Pasterlash harorati ko’tarilgan sari zardob oqsillari denaturatsiyasi ortib boradi, laxta hosil bo’lishida ishtirok etadi, bu esa o’z navbatida uning zichligini oshiradi va namlikni ushlab turish qobiliyatini kuchaytiradi. Bu zardob ajralish intensivligini kamaytirib, mahsulot chiqarish miqdorini ko’paytiradi. Pasterlash rejimlarini va laxtaga ishlov berishni boshqarish, hamda tomizg’i shtammlarini tanlash yo’li bilan zarur bo’lgan reologik va namlik tutib turish sifatlariga ega laxta olish mumkin.

G.N. Moxno taklifiga binoan, tvorog uchun mo’ljallangan aralashmani pasterlash haroratini 90°S gacha oshirish ko’zda tutilgan. Chunki bunda zardob oqsillari to’la cho’ktiriladi va mahsulot chiqish miqdori 20 – 25% oshadi; laxtadan zardob ajralishi qiyinchiliksiz kechadi.

Pasterlangan sutni ivitish haroratigacha sovutiladi (yozda 28–30, qishda – 30 – 32°S gacha) va maxsus tvorog tayyorlash vannalariga yo’naltiriladi. Tvorog tayyorlash uchun mo’ljallangan tomizg’i mezofil sut kislotali streptokokklarning toza kulturalarida tayyorlanadi va 1 – 5% miqdorda solinadi. ba’zi mutaxassislar

tomizg'iga Str. acetoinicus qo'shishni tavsiya etadilar. Tomizg'i solingach ivish davri 6 – 8 soatni tashkil etadi.

Sutni ivitish tezkor usulida sutga 2,5% mezofil steptokokk kulturasida va 2,5% termofil sut kislotali streptokokk kulturasida tayyorlangan tomizg'i solinadi. Ivitish harorati tezkor usul qo'llanilganda, yilning issiq davrida 35 gacha, sovuq davrida esa 38 $^{\circ}\text{S}$ gacha ko'tariladi. Bunda laxtadan zardob ajralishi intensiv kechadi, sutning ivish davri 2 – 3,5 soatga qisqaradi.

Tvorog sifatini ko'tarish maqsadida sterillangan sutda qayta ekilmaydigan (besperesadochniy) usulda tayyorlanadigan tomizg'i qo'llaniladi, bu esa o'z navbatida 0,8 – 1% miqdorda qo'llaniladigan tomizg'ini kamaytirish imkonini beradi, agar uning tozaligi kafolatlangan bo'lsa.

Tvorog shirdon – kislotali usulda tayyorlanganda tomizg'i solingach, qaynatib 40 – 45 $^{\circ}\text{S}$ haroratgacha sovutilgan suvda tayyorlangan kaltsiy xlorning 40% li eritmasi (1 t sutga 400 gr suvsiz tuzi hisobida) qo'shiladi. Kaltsiy xlor shirdon fermenti yordamida paterlangan sutning zich, zardobni laxtadan yaxshi ajratadigan xossalari tiklanishi imkonini beradi. Shundan so'ng, darxol sutga 1 tonnaga 1 gr. dan hisoblab shirdon fermenti yoki pepsinning 1% li eritmasi solinadi. shirdon fermenti qaynatilib, 35 $^{\circ}\text{S}$ gacha sovutilgan suvda eritiladi. Pepsin eritmasi, uning faolligini oshirish maqsadida, foydalanishdan 5–8 soat avval, nordon suzib olingan (osvetlyonnoy) zardobda tayyorlanadi.

Tvorog tayyorlash vannasi unumdorligini oshirish uchun sut 32–35 $^{\circ}\text{T}$ kislotalikkacha rezervuarlarda ivitilib (achitilib), so'ngra vannalarga xaydaladi, so'ngra kaltsiy xlor va ferment qo'shiladi.

Laxtaning tayyor bo'lganini uning kislotaliligi (yog'liq va yarim yog'liq tvorog uchun $58 \div 60$, yog'siz uchun $75 \div 80$ $^{\circ}\text{T}$) va ko'rinishiga qarab (vizualno)– laxta zich bo'lishi lozim, sinish chegaralari tekis, tiniq ko'kintir rangli zardobli bo'lishiga qarab aniqlanadi.

Ivish davri kislotali usulda $6 \div 8$ soat, shirdon–kislotali usulda $4 \div 6$ soat, faol

kislota hosil qiluvchi tomizg'idan foydalanilganda – 3÷4 soat davom etadi.

Laxta hosil bo'lish oxirini to'g'ri aniqlash muhimdir. Laxta hosil bo'lishi oxiriga etmay qolsa, nordon ta'mli, konsistensiyasi suykaluvchan tvorog hosil bo'ladi.

Zardob ajralishini jadallashtirish uchun, laxta maxsus simlardan yasalgan pichoqlar yordamida qirralari 2 sm li kubikchalar ko'rinishida qirqib chiqiladi. Kesilgan laxta, kislotali usul qo'llanilganda, 36–38 °S gacha zardob ajralishini intensivlashtirish uchun qizdiriladi va 15÷20min tutib turiladi. So'ngra zardob chiqarib tashlanadi. Shirdon – kislotali usulda – maydalangan laxta qizdirilmasdan 40 – 60 min. tinch saqlanadi va zardobning intensiv ajralishini ta'minlaydi.

Zardob ajralish jarayoni laxtani o'z – o'zini presslashi va presslash yo'li bilan davom ettiriladi. Buning uchun uni bez yoki lavsan qopchalarga 7÷9 kg dan (qopcha sig'imining 70%) solib og'zi bog'lanadi va press–aravalarga bir necha qavat qilib joyланади. O'z massasi ta'sirida laxtadan zardob ajralib chiqadi. O'z – o'zini presslash salqin xonada (16 °S gacha) taxminan 1 soat davomida kechadi. O'z–o'zini presslash so'ngiga etgani laxta rangi yaltiroqligini yo'qotishi aniqlanadi.

So'ngra press yordamida tvorog tayyor holga kelgunga qadar presslanadi. Presslash jarayoni davomida qopchalar bir necha bor joylari almashtirib turiladi. Kislotalilik oshib ketmasligi uchun presslash 3 – 6 °S haroratli xonalarda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. So'ngra, darxol tvorog (oxladitel) sovutish uskunalarida 8 °S gacha sovutilishi lozim.

O'z–o'zini presslash va sovutish uchun aravachalardan tashqari maxsus uskunalar ham mavjud. Unga joylangan laxtali qopchalar baroban aylanishi oqibatida hamda baraban quvurlaridan oqib o'tayotgan sovutish agenti yordamida bir vaqtning o'zida ham presslanadi ham sovutiladi.

Tayyor mahsulot avtomatlar yordamida har turdag'i idishlarga (yao'ik, flyaga, bochka, korobka va h.k.) joylashtiriladi va mayda qilib qadoqlanadi (0,25;

0,5; 1 kg va h.k.). qadoqlash materiallari ham hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda turli tumandir (pergament, polietilen, tsellofan, alyumin va b.).

Tvorog savdoga chiqarilguncha saqlash kamerasida 8°S yuqori bo'limgan haroratda, namlik 80 – 85%, 36 soatgacha saqlanadi. Aks holda, fermentativ jarayonlar kechishi to'xtamasligi sababli, tvorogda ba'zi bir nuqsonlar rivojlanishi mumkin.

Presslash vannali tvorog tayyorlash vannalari hamma turdag'i tvoroglarni tayyorlash uchun foydalilanadi. Bunda qopchalarda presslash usulida ko'p mehnat sarflab tvorog tayyorlash jarayoniga xojat qolmaydi.

Tvorog tayyorlash usukunasi ikkita 2000 l hajmli, zardob uchun lyuk bilan jixozlangan ikki qavatli vannalardan iborat. Vannalar yuqorisida devorlari performatsiyalangan va filtrlovchi mato tortilgan presslash vannasi osib o'rnatilgan. Presslash vannasi gidravlik moslama yordamida tepaga ko'tarilishi yoki ivitish vannasining deyarli tubigacha tushirilishi mumkin.

Tayyorlangan sut vannalarga quyilib, tomizg'i kaltsiy xlor va shirdon fermenti eritmalarini solingach, xuddi oddiy tvorog tayyorlash usuli kabi ivish uchun qoldiriladi. Tayyor bo'lган laxta kesib maydalangach 30 – 40 min tutib turiladi. Bu vaqt ichida zardobning asosiy qismi ajraladi va uni suzgich – ajratgich otnornik (teshik – teshik filtrli mato tortilgan tsilindr) yordamida vannadan chiqarib tashlanadi.

Presslash uchun perforatsiyalangan vannani pastga laxta bilan uchrashguncha tezda tushiriladi. Tayyorlangan tvorog sifati va turiga qarab presslash vannasini botirish tezligi belgilanadi. Ajrab filtrli mato va teshiklardan qtib, presslash vannasi ichida yig'ilgan zardob har 15 – 20 minutda nasos yordamida so'rib olinadi. Vannalar oralig'i tvorog bilan to'lib, ma'lum masofaga ega bo'lgach moslama presslash vannasining pastga qarab harakatlanishini to'xtadi. Vannalar oralig'idagi masofa tvoroglarni tajriba uchun ishlab chiqarishlarda belgilanadi. Ishlab chiqariladigan tvorog turiga qarab presslash davri yog'liq tvorog uchun 3 – 4 soat, yarim yog'liq tvorog uchun 2 – 3 soat, yog'siz tvorog uchun 1 – 1,5 soat davom etishi mumkin. Ivitish tezkor usulda amalga

oshirilganda yog'li va yarimyog'li tvorog tayyorlash uchun presslash jarayoni 1 – 1,5 soatga qisqaradi.

Presslash oxiriga etgach perforatsiyalangan vanna ko'tariladi, tvorog esa lyuk orqali aravachalarga bo'shatiladi. Tvorog ortilgan aravachalar ko'tarish mexanizmlari yordamida yuqoriga ko'tarilib sovutgich bunkeriga to'ntariladi, sovutilgan tvorog qadoqlash avtomatlariga yo'naltiriladi.

Bahor va yoz fasslarida tvorogni zaxira qilish uchun muzlatiladi. Bunday tvorog sifati muzlatish usulidan bog'liq. Tvorog asta sekin muzlatilsa qumo – qumo va sochiluvchan (donador) konsistentsiyaga ega bo'ladi, namlikni yirik kristallar ko'rinishida muzlashi natijasida. Muzlatish tez sur'atda amalga oshirilsa, tvorog namlik butun massa bo'ylab mayda kristallar shaklida muzlaydi, ular tvorog strukturasini buzmaydi va eritilgach tvorogning birlamchi xossalari – konsistentsiyasi va strukturasi tiklanadi. Tvorog qadoqlangan holda ($7 - 10\text{kg}$ va $0,5 \text{ kg}$ li briketlar) – 25 dan – 30 $^{\circ}\text{S}$ haroartda termoizolyatsiyalangan uzlusiz ishlaydigan muzlatish kameralarida qadoqlangan bloklar markazi – $18 \div -25$ $^{\circ}\text{S}$ haroratga ega bo'lguncha $1,5 - 3$ soat davomida muzlatiladi. Muzlatilgan tvorog bo'laklari karton yashiklarga joylashtirilib yuqorida ko'rsatilgan haroratda $8 - 12$ oy davomida saqlanadi. Tvorogni eritishni 12 soat mobaynida 20 $^{\circ}\text{S}$ dan oshmagan haroratda amalga oshiriladi.

Tvorogni ajratma usulda ishlab chiqarish

Bu usulda tvorog ishlab chiqarish uchun tayyorlangan sut $40-45$ $^{\circ}\text{S}$ haroratgacha qizdirilib, $50-50\%$ yog'lilikdagi qaymoq ajratib olish uchun separatorga yuboriladi.

Qaymoq plastinkali pasterlash–sovutish uskunasida 90 $^{\circ}\text{S}$ haroratda pasterlanib, $2-4$ $^{\circ}\text{S}$ gacha sovutiladi va saqlash uchun yuboriladi.

Yog'sizlantirilgan sut $78-80$ $^{\circ}\text{S}$ haroratda 20 sek davomida pasterlanib $30-34$ $^{\circ}\text{S}$ gacha sovutilib, maxsus aralashtirgich bilan jixozlangan rezurvuarga ivitish uchun yuboriladi. Shu idishning o'zida tomizg'i, kaltsiy xlor va ferment solib yaxshilab aralashtirilib aralashma $90 - 100$ $^{\circ}\text{T}$ islotalikka ega laxta hosil qilib ivishi


uchun saqlanadi. Ko'rsatilgandan past kislotalilikdagi laxta separatlanganda separator soplasi tiqilib qolishi mumkin.

Tayyor bo'lган laxta yaxshilab aralashatiriladi va nasos bilan plastinkali issiqlik aralashtirgichga yuboriladi. U erda avval 60 – 62 °S gacha qizdiriladi, so'ngra 28 – 32 °S gachasovutiladi. Bu oqsil va zardob qismlariga ajralish yaxshi kechishini ta'minlaydi. Issiqlik almashtirgichdan laxta bosim ostida separator – tvorog tayyorlagichga uzatilib, zardob va tvorog bir biridan ajratib olinadi.

Yog'liq tvorog ishlab chiqarishda separator yordamida nam ajratib olish laxtadagi namlikning massa ulushi 75–76% gacha, yarimyog'liq tvorog ishlab chiqarishda esa-namlik massa ulushi 78–79% gacha davom ettiriladi.

Olingan tvorog massasi quvurli sovutichda 8 °S gacha sovutiladi, valtsovka yordamida gomogen konsistentsiya hosil bo'lguncha ezg'ilab ishlov beriladi.

Sovutilgan tvorog aralashtirish uskunasiga yuborilib, dozator yordamida pasterlangan, sovutilgan qaymoq qo'shiladi va yaxshilab aralashtiriladi. Tayyor mahsulot avtomatlarda qadoqlanib saqlash kameralariga yuboriladi.




2-rasm. Tvorog ishlab-chiqarishning texnologik sxemasi.

1, 7 - idishlar, 2 – sut uchun nasos, 3 – plastinkali pasterizator, 4 – separator – qaymoq ajratgich, 5 – qaymoq uchun nasos, 6 – qaymoq uchun plastinkali pasterlash – sovutish jihizi, 8 – nasos, 9 – zakvaska tayyorlagich, 10 – aralashtirgich, 11 – membranali nasos, 12 – plastinkali issiqlik almashtirgich, 13 – separator – tvorog ajratgich, 14 – yig'gich, 15 – tvorog uchun nasos, 16 – tvorogni sovutgich, 17 – aralashtirgich.

Yog'siz tvorog

Pasterlangan ($85\text{--}90^{\circ}\text{S}$) yog'sizlantirilgan sutga sut kislotali streptokokklar kulturasidan tayyorlangan tomizg'i solib ivitilgan laxtadan zardobni separator yordamida ajratib, hosil bo'lgan yog'siz tvorogga qaymoq qo'shish yo'li bilan tayyorlanadi. Buning uchun pasterlangan va $28\text{--}34^{\circ}\text{S}$ gacha sovutilgan yog'sizlantirilgan sutga aralashtirib turib tomizg'i, kaltsiy xlor va shirdon fermenti eritmasi (1–1,2 gr) qo'shiladi. Aralashma laxta kislotaliligi $90\text{--}110^{\circ}\text{T}$ gacha ivitiladi ($\text{rN } 4,3\text{--}4,5$) yoki tezkor usulda tayyorlanayotganda $85\text{--}90^{\circ}\text{T}$ gacha. Tayyor bo'lgan laxta yaxshilab aralashtirilib (5 – 10 min) nasos yordamida issiqlik almashtirgichga yuborilib, zardob yaxshi ajralishini ta'minlash uchun $60\text{--}62^{\circ}\text{S}$ gacha qizdiriladi, so'ngra $28\text{--}32^{\circ}\text{S}$ gacha sovutiladi. So'ngra laxta setkali filtr yordamida maydalanadi va yog'siz tvorog olish uchun separator – tvorog tayyorlagichga kelib tushadi (3-rasm).



3-rasm. Yog'siz tvorog ishlab chiqarish liniyası.
1,7-pasterizatorlar; 2,15-rezervuarlar; 3,6,12-nasoslar; 4,11-idishlar; 5-tank; 8-tarozi; 9-schyotchik; 10-separator; 13-isitkichli tank; 14-aralashtirgich; 16-qadoqlash.

MAHSULOT HISOBI

Tvorog uchun

2500 kg tvorog ishlab chiqarish uchun xom ashyo sarfini hisoblash talab etiladi. Me'yoriy yo'qotish $N_r = 1008 \text{ kg/tonna}$.

Yo'qotishni hisobga olib tvorog miqdori

$$1000 - 1008$$

$$2500 - k_{\text{tvorog}}$$

$$\kappa_{\text{meopoz}} = \frac{2500 \cdot 1008}{1000} = 2520 \text{ kg}$$

Retsepturaga asosan 2520 kg yog'sizlantirilgan tvorog tayyorlash uchun

$$1000 - 6754$$

$$2520 - k_o$$

$$\kappa_o = \frac{2520 \cdot 6754}{1000} = 17020,08 \text{ kg yog'sizlantirilgan sut sarflanadi.}$$

JIHOZ TANLASH

Tvorog uchun

Nº	Nomlanishi	Jixoz markasi	Soni
1.	Tank	V2-OMG-2	1
2.	Nasos	36-1TS2	3
3.	Filtr		1
4.	Pasterlash-sovutish uskunasi	A1-ONS-2	1
5.	Rezervuarlar		2
6.	Separator zardob ajratgich		1
7.	Trubasimon sovutish apparati		1
8.	Qadoqlash avtomati		1
9.	Boshqarish pulti		1
10.	Sovutish kamerasi		1

TEXNIK-KIMYOVIY NAZORAT

Ishlab chiqarish jarayonida texnik-kimyoviy nazorat o'rni

Texnik-kimyoviy nazorat - bu korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishda ularni standart talabiga (bo'yicha) asoslanganligini, texnikaviy sharoitlarini, texnologik reglamentini va instruktsiyaga asoslanganligini ta'minlovchi nazoratdir. Texnik-kimyoviy nazorat funktsiyasiga quyidagilar kiradi:

- a) kelayotgan xom-ashyoning sifatini, qo'llaniladigan idishlarni (tara), materiallarni joylanishini nazorat kiladi;
- b) tayyor mahsulot sifatini, asboblarni (tara) joylashi-shini, markalar qo'yilishini va mahsulotni korhonadan chiqarish tartibini nazorat qiladi;
- v) ketgan xom-ashyo xarajati va tayyor bo'lgan mahsulot miqdorining nazorati. (rasxod i vixod);
- g) uskuna, apparat va idishlarni yuvib dezinfektsiyalash sifatini, rejimlarini, hamda ishlab chiqarishda (sanitarno-gigienik) tozalik xolatini nazorati;
- d) ishlab chiqarilayotgan sut va sut mahsulotlariga ishlov berish texnologik jarayonlarii nazorati;
- j) tekshirishlar (analiz) uchun foydalaniladigan reaktivlarni va ularni saklash tartibini nazorati;
- z) KIP xolatini nazorat qilish.

Ishlab chiqarish tsexlarining tozalik (sanitarno-gigienik) xolatini baholashda quyidagilarga asoslanadi: ularning texnologik va mikrobiologik sifatini nazoratiga,

apparat, inventar va idishlarning yuvilish sifatiga, hamda korxonaning va ishchilarning ish joylarini tozalik xolatlarini kuzatishga asoslanib baholanadi.

Sut va sut mahsulotlarining texnik-kimyoviy nazorati

Mahsulotlarning nomi	xaro rati	kis lot nost	qay- nash dar-si	org-k baxo	zich ligi	SO mo	mdj	fos fato znaya	bosi mi	nam ligi	og'ir- ligi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Sut 3,2% Sut 2,5%											
saqlash jarayonida	+	+									
normalizatsiyalash jarayonida		+									
to'ldirilgan idishlarda	+	+	+	+	+	+	+	+			
paster-ya va sovutish	+										
quyish boshlanishida								+			+
kuyish jarayonida	+	+		+							+
Tvorog											
sut norm oldin			+				+				
normal davomida							+				
paster va sovugish jarayoni	+										
zakvaskada	+						+				
skvash jarayoni	+	+									
qayta ishlash jar		+		+			+	+			+
sovutishda	+										
qadoqlashda	+	+			+						+

TAYYOR MAHSULOT SIFATIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Oziq-ovqat mahsulotlari sifatini tekshirish

Har bir mahsulot ma'lum bir sifatga ega. Mahsulot sifatiga baho berishda uning ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Mahsulotning asosiy ko'rsatkichlariga uning energetik va biologik qimmati, organoleptik ko'rsatkichi kiradi. Umuman olganda mahsulotning sifati kompleks baholanadi.

Mahsulot sifati, odatda o'rtacha namuna tanlab olish yo'li bilan aniqlanadi. Mahsulot sifati organoleptik va tajriba usullari yordamida aniqlanadi.

Organoleptik usul mahsulot sifatini aniqlashda asosiy usul hisoblanadi. Organoleptik tekshirish kishining sezgi organlari vositalari yordamida olib boriladi. Bu usul bilan mahsulotlarning hidi, ta'mi, rangi, shakli, o'lchami, tashqi ko'rinishii, konsistensiyasi aniqlanadi.

Tvorog sifatiga organoleptik jihatdan baho berish

Tvorog sifatiga organoleptik jihatdan baho berishda uning tashqi ko'rinishi, konsistensiyasi, rangi, ta'mi va hidi hisobga olinadi.

Tashqi ko'rinishi. Qadoqlangan mahsulotni ko'zdan kechirganda uning tashqi ko'rinishiga e'tibor beriladi. Tvorogning tashqi yuzasi ifloslanmagan, shilimshiq va mog'orlanmagan bo'lishi kerak.

Pergament qog'ozi ochilgach, mahsulotning yuzasi ko'rib chiqiladi. Bunda mahsulotning yuza qismi toza, deformatsiyalanmagan bo'lishi kerak.

Konsistentsiyasi. Tvorogning konsistentsiyasini aniqlashda tvorogning uvalanishiga va yog'lilikiga e'tibor beriladi. Tvorog tarkibidagi yog miqdori qancha past bo'lsa, shuncha tvorogning konsistentsiyasi zichroq; yogsiz tvorogning konsistentsiyasi donador bo'ladi.

Ta'mi va hidj: Tvorogning ta'mi sut-achitqi mahsulotiga xos, nafis ta'mli, xech qanday begona ta'm va hidsiz bo'lishi lozim.

Rangi: Rangi oq bo'lib butun massasi bo'ylab bir tekisda tarqalgan bo'lishi kerak.

. Технологик қурилмалари структураси синфланиши, асосий кўрсаткичлари ва уларга қўйиладиган талабалар

Сут саноати корхоналари қўл механизациялаштириш ва уни бошқаришни автоматлаштиришга хизмат қиладиган ускуналар билан жихозланган. Сут хом ашёсини озиқ – овқат ва техник маҳсулотларга қайта ишлашдаги операцияларни бажаришга мўлжалланган ишлаб чиқариш ускуналари технологик деб аталади.

Ишлов берилаётган маҳсулот ўз физик – механик ва бошқа хоссаларини сақлаган ҳолда фақат шаклини, ўлчамларини ва шунга ўхшаш жихатларини ўзгартирадиган технологик қурилма машина деб аталади. Машинанинг конструктив жихатдан ажралиб туриши–маҳсулотга механик таъсир кўрсатувчи характеристланадиган ишчи органларининг борлиги.

Ишлов берилаётган маҳсулот ўз физик–механик, биокимёвий хоссаларини ёки агрегат холатини ўзгартиридиган технологик ускуна – аппарат деб аталади. Аппарат конструкциясининг ўзига хослиги – маҳсулот хусусиятларин ўзгартириш мақсадида таъсир кўрсатиш имконини берадиган реакцион бўшлиқ (хажм) ёки ишчи камеранинг (резервуар) мавжудлиги.

Бундан ташқари аппарат фаолият кўрсатиши учун иссиқлик ва совуқлик ташувчи ҳар хил суюқликлардан (иссиқ сув, совуқ, яхна сув, буг ва бошқалар) фойдаланилади.

Ишчи суюқлик ва ишлов берилаётган маҳсулот аппарат ичida бир – бири билан бевосита kontaktda ёки ёки kontaktciz ҳолда бўлиши мумкин.

Иккинчи ҳолда, аксарият ўзаро таъсир ажратиб турувчи юза (қисм) орқали (металл девор) амалга оширилади.

Ускуналар структураси. Ҳар бир технологик ускуна бирлиги кўйидаги қисмлардан иборат: станиналар (корпуслар, рамалар ва б.х.к.), маҳсулот соладиган (бўшатиладиган) мослама ёки қисм, химоя (блокировка), узатиш ва иш механизmlар, ишчи бажарувчи орган ва назорат – ўлчов асбоблари. Ускуна техник таснифини белгиловчи асосий қисмлар узатиш қисми, иш механизм ва ишчи органларининг ўзаро (боғлиқликдаги) фаолиятидир.

Станина ускунанинг барча қисмларини маҳкамлаш учун, шу жумладан күшимча мосламаларни (транспортировка қилувчи, кўтарувчи ва х.к.) мўлжалланган. Баъзи бир ускуна турларида (сепараторлар ва бошқалар) станина асосий вазифадан ташқари ишчи механизмни мойлаш учун мўлжалланган мой турадиган мослама (картер) вазифасини ҳам ўтайди.

Юклаш ва бўшатиш мосламаси маҳсулотни ускунага даврий ёки узлуксиз равишда солиб туриш, ҳамда технологик жараён талабидан келиб чиқиб уни хажм ёки массасига қараб дозировка қилиш имконини беради.

Химоя мосламаси (блокировка) ускунанинг баъзи қисмларини нотўғри ёки бевақт ишга тушиб кетиши олдини олиш ёки уларнинг авария вақтида бузилишидан сақлаб қолиш учун хизмат қилади.

Узатма (привод) харакатни ишчи механизм ёки ишчи органлар орқали узатиш учун керак. Узатувчи сифатида электр, гидравлик ва пневматик механизmlар қўлланилади.

Электр узатмалар энг кенг тарқалган механизmlардир. Унинг асосий қисми электродвигател.

Электр токига қараб электродвигателлар уч гурухга бўлинади:

Ўзгармас ток ўзгармас ёки бошқариладиган, кучланишли. Уларда вал айланиш частотасини кенг миқиёсида силлик (плвное) ўзгартериш имкони бор;

Уч фазали ўзгарувчан ток (трёх фазные переменного тока) – нисбатан кам қўлланиладиган синхрон ва кенг қўлланиладиган асинхрон. Синхрон электродвигателлар валнинг доимий частотаси билан (перечулируемой) нагрузкадан боғлиқ бўлмаган ҳолда ишлайди. Асинхронларга қараганда улар анча юқори фойдали иш коэффициентига эга, юқори юкланишларга чидамли. Асинхрон электродвигателлар технологик ускуналарни харакатга келтириш учун фойдаланилади, улар конструктив ва хазмат кўрсатиш бўйича содда, уларни сетга бевосита, (преобразователларсиз) ток ўзгартиргичларсиз улаш мумкин;

Кам қувватли бир фазали асинхрон. Уларни (аксарият) кўпинча, ёрдамчи қурилмаларда қўлланилади.

Уч фазали асинхрон электродвигателлар бир ва кўп тезликка эга бўлиши мумкин (тезлик сони – максимал тўртта). Катта тезликка эга электродвигателларнинг қулайлиги шундан иборатки, улар ўзгарувчан тезлик билан ишлаши мумкин.

Уч фазали асинхрон электродвигателлар ёпиқ (суюқлик томчилари ва чангдан) ҳолда ёпиқ ва (шамоллатиш) еллатиладиган (обдувасмол) ҳолда, ёпиқ ва еллатиладиган юқори ишга тушириш моментига эга ҳолда, юқори сирпанишли (скольжением) ёпиқ ва бошқа ҳолда ишлаб чиқарилади.

Таянчга (опора) маҳкамлаш конструкцияси бўйича электродвигателлар фланецли, чиқиши қисми пастда жойлашган вертикаль, силжийдиган (сирпаладиган) плитали ва (встраиваемые) ўрнатиладиган турларга ажратилади. Электр харакатга келтирувчи сифатида тизим электродвигателлари (линейные электродвигателлари) ва соленоидлар (электромагниты) ҳам хизмат қилишлари мумкин.

Гидравлик харакатга келтирувчи ишчи суюқликни гидросистемага ва ундаги босим ва сарф меъёрини таъминлаб турувчи насосдан узатувчи (минерал ва кастор ёғи, глицерин, сув ва бошқалар) (харакатни ишчи механизмга узатувчи) гидродвигателдан, насос ва гидродвигателни боғловчи кувурлардан, ишчи суюқликларни сақловчи идишлардан; ишчи

суюқликларни тозалаш (фильтр) ва совутиш қурилмаларидан ташкил топган. Ишчи суюқликни узатиш учун (лопастли) шестерняли, поршенли ва бошқа турдаги насослар қўлланилади.

Гидродвигателлар ротацион, буриладиган (поворотные) (сервомоторы) ва поршенли (гидроцилиндрлар) бўладилар. Биринчилари иш механизмини айланма, иккинчилари–бурилиш ва учинчилари–олдига ва орқага (возвратно-поступательное) харакатга келтирадилар.

Пневматик харакатга келтиришда ишчи восита сифатида қисилган ҳаводан фойдаланилади. Узатгич таркибига системага ҳаво пулфайдиган компрессор, ҳаво заҳирасини ҳосил қилиш учун ресивер (герметик идиш); фильтр; қувурлар; пневмодвигателлар; назорат ва автоматика асбоблари киради. Пневмодвигателлар ротацион, поршенли, мембранныи ва бошқа турли бўлади. Поршенли кенг тарқалган.

Ишчи (узатиш) механизми. (Исполнительный (передаточный)). Ҳаракатни харакатлантирувчидан технологик ускунанинг ишчи органларига узатиш учун ҳизмат қиласи.

Бу механизм привод билан боғланган етакловчи звенодан ва ишчи органлар билан боғланган эргашувчи звенодан иборат. Ишчи механизм фаолиятини баҳолайдиган асосий кўрсаткич – узатиш (сони) нисбати.

У қуйидагилар нисбати билан ифодаланади; тишли узаткичларда етакловчи ва эргашувчи тишилар сонининг етакловчи ва эргашувчи шестернялар диаметрига; тишли ва ременли узаткичларда эргашувчи шестерня (шкив) айланиш частотасининг етакловчи шестерня (шкив) айланиш частотасига.

Узатиш механизми ишчи органлар ишлаш шароити билан баҳоланади.

Қуйидаги узатиш механизмлари мавжуд:

Узлуксиз ишлайдиган – иш органлари ишлов берилаётган маҳсулот билан механизмларнинг бутун цикли даврида доимий контактда бўладилар;

Даврий ишлайдиган – иш органлари ишлов берилаётган маҳсулот билан узатиш механизми ҳаракатининг бир қисми давомида контактда бўладилар, қолган вақтда ишсиз ҳолатда бўладилар.

Узатиш механизмлари қаттиқ ва юмшоқ бўлиши мумкин. Тишли, червякли, ричагли, кривошип-шатунли, шарнирли, крест қўринишили, пружинали, планетар, фракцион ва дифференциал турдагилар қаттиқ узатиш механизмларига киради. Юмшоқ узатиш механизмлари – ременли, занжирли, тасмали ва х.к.лар кичик узатиш нисбатида, ҳамда қаттиқ механизмлар билан бирга ишлатилади.

Ишчи органлар ишлов берилаётган маҳсулотга бевосита энаргетик (механик, иссиқлик) таъсир кўрсатиш ёки ишлов берилаётган маҳсулотнинг ишчи восита ёки энергетик майдон билан ўзаро таъсирда бўладиган шароит яратиш учун ҳизмат қиласи. Бу органларт маҳсулот ҳоссалари, уларга бериладиган ишлов усули, режими ва йўналишидан келиб чиқкан ҳолда ҳархил конструкцияда бўладилар.

Ишчи органлар конструкцияси бўйича шнек ва винтли, барабанли, вальцли, мембронали ва шлангли, тасмали, тўрли, фракцион, цилиндр-поршен жуфтлигига, соплали, форсункали ва дискли бўлиши мумкин.

Кўрсатадиган таъсир бўйича ишчи органларни тозалайдиган, майдалайдиган, аралаштирадиган ва иссиқлик берувчи, узатадиган бўлиши мумкин.

Тасниф (классификация). Сут саноати корхоналари технологик ускуналари тузилиши, ишлаш принципи, бажарадиган технологик операциялари ва уларни амалга ошириш усулларига қараб ажратилади. Ускуналар ўзларига тегишли бўлган умумий хусусиятларига қараб у ёки бу гурухга бирлаштирилиб тавсифланиши мумкин: иш цикли характеристери билан, ишлаб чиқариш тизимига мослиги билан, механизмланиш ва автоматлаштириш даражаси билан, функционал вазифаси билан ва бошқалар.

Иш цикли характеристига қараб ускуналар даврий ва узлуксиз бўлади. Даврий ишлайдиган ускунада маҳсулотга маълум вақт давомида ишлов

берилади, сўнг бўшатилади. Узлуксиз ишлайдиган ускунада маҳсулотни юклаш(ортиш), ишлов бериш ва бўшатиш бир вақтда амалга оширилади.

Ускунанинг механизациялаш ва автоматлаштириш даражаси, у бажарадиган асосий ва ёрдамчи операцияларнинг нисбати билан белгиланади. Бу нисбатдан елиб чиқкан ҳолда ускуналар автоматлаштирилмаган, яrim автоматлаштирилган ва автоматлаштирилган турларга бўлинади.

Автоматлаштирилмаган ускуналарда ёрдамчи ва асосий операцияларнинг бир қисми кўл меҳнати ёрдамида бажарилади. Яримавтомат ускуналарда асосий операцияларни ускуна, ёрдамчиларни эса одамлар бажаради. Томатларда ҳамма операциялар ускунада бажарилади.

Технологик ускунанинг ишлаб чиқариш тизимидағи тутган ўрнига қараб алоҳида бирликлари (битта операцияни бажаради), агрегатлар (кетма-кет ҳар хил операцияни бажаради), ускуналар комбинацияси (якунланган операциялар циклини бажаради) ва потокли технологик линиялар (ҳамма операциялар узлуксиз потокда бажарилади).

Сут хом ашёсига ишлов бериш усули ва таъсир кўрсатиш принципларига қараб, ускуналар функцияси белгиланади. Функционал белгисига қараб ускуналар қўйидаги умумий гурухларга бўлинади: сутни қабул қилиш, транспортировка қилиш ва саклаш учун; сутга механик ишлов бериш учун; сутга иссиқлик ишловини бериш учун; қуолтириш ва қуритиш учун; сут ва сут маҳсулотларини қўйиш, қадоқлаш ва упаковка қилиш учун. Функционал аломатларига қараб, таснифлаш ускуна иш принципини механика, гидромеханика, иссиқлик физикаси, физик кимё, биокимё ва микробиология қонунлари билан маҳкамроқ боғлаш имконини беради.

Бундан ташқари сут маҳсулотларининг конкрет турларини ишлаб чиқариш учун қўлланиладиган ускуналардан (сариёғ тайёрловчи, сариёғ ҳосил қилувчи, фризерлар, сыр учун пресслар) ҳам фойдаланилади)

Ускуналарнинг асосий кўрсаткичлари. Технологик ускуналарнинг иши техник характеристикасини ташкил қилувчи технологик ва техник кўрсаткичлари орқали ифодаланади. Уларга одатда қуидагилар киради:

- қуввати, яъни қайта ишланадиган хом ашё ёки ишлаб чиқариладиган маҳсулотнинг вақт бирлигидаги миқдори;
- сарфланадиган энергетик қувват, вақт бирлигидаги иссиқлик ёки совуқлик миқдори, электр энергияси билан ифодаланади;
- электр энергияси кўрсаткичлари (кучланиш, частота, фазалар сони) иссиқлик ташувчи кўрсаткичлари (ҳарорати, босими). Совуқлик ташувчи кўрсаткичлари(тури, ҳарорати);
- хом ашё ва ишлаб чиқариладиган маҳсулот кўрсаткичлари;
- ускуна ва унинг айрим элементлари ва қисмлари ишлаш режими кўрсаткичлари – босим, ҳарорат, айланиш частотаси ва бошқалар;
- ускуна габарит ўлчамлари ва массаси;
- эксплуатация шароитлари (ишлаб чиқариш биноси характеристикиси, ҳарорати ва ҳавонинг нисбий намлиги)


Ускуна техник характеристикиси унинг конкрет маҳсулот турини ишлаб чиқариладиган технологик операцияни бажара олишга яроқли эканлигини аниқлаб беради.

2. СУТНИ САҚЛАШ УЧУН ИДИШЛАР

Сутни сақлаш танки


Улар совутилган сутни тўплаш ва сақлаш (24 соатгача) учун мўлжалланганлар. Идиш корпуси термоизоляцияланади, (пробка ёки полимер материал) темирдан (пўлатдан) ясалган химоя қобигига эга. Термоизоляция сут ҳароратини 12 соат мобайнида атроф муҳит ҳарорати 20 °C шароитда 1 °C дан ортиқ ўзгармаслигини таъминлаш керак. Идишлар сутни аралаштириш учун механик аралаштиргичларга эга.

Катта хажмдаги резервуарларда сақланадиган сут насослар ёки ҳаво ёрдамида аралаштирилиб турилади. Идишлар сут сифатини назорат қилиш асбоблари (рН, ҳарорат), ҳамда автоматика жихозлари билан таъминланади.



1-расм. Сут совутиш резервуари.

1,4 – сутни қийши патрубоклари; 2 – аралаشتыргич узатмаси; 3 – вентиляцион төшік; 5 – қопқоқ; 6,7,9 – микропроцессорлы датчиклар; 8 – корпус; 10 – уч йүлли қийши патрубоги; 11 – таянч; 12 – ювииш учун сопло; 13 – аралаشتыргич.



2-расм. Сут сақлаш танки Г6 – ОМГ – 25.

1 – таянч; 2- құвур; 3 – ерга тұтасыриши болты; 4 – ўтказгич; 5,24 – уч йүлли кранлар; 6 – люк қопқоғи; 7 – электроқұрылма; 8 – зина; 9 – ташқы корпус; 10,12 – датчиклар; 11 – алюминийли идиш; 13 – қулоги; 14 – ювииш каллаги; 15 – құвур; 16 – көжсүх; 17 – электрошкаф; 18 – күриши ойнаси; 19 –фильтр; 20 – ёритгич; 21 – термометр датиги; 22 – люк қопқоғини блокировкалаш узели; 23– насадка; 25 – насос; 26 – кран; 27 – қийши патрубоги; 28 – датчик.

3. Сутни сақлаш танкининг хисоби

1) Танқдаги иссиқлик алмашинув

Сут сақлаш танкларига қўйиладиган талаблар технологик жараёнларни хисобга олган ҳолда қўлланилади.

Ҳарорат ўзгаришини хисобга олган ҳолда иссиқлик миқдорини аниқлаш мумкин.

Иссиқлик миқдори қуидагича аниқланади:

$$Q = m \cdot c \cdot (t_2 - t_1), \text{ кЖ}$$

Бу ерда, m – резервуардаги сут миқдори, 2 т ёки 2000 кг;

$$c \text{ -- сутнинг иссиқлик миқдори, } 0,92 \cdot 10^3 \frac{\text{Ж}}{\text{кг} \cdot ^\circ \text{C}}$$

t_2 – сутнинг охирги ҳарорати, 10°C ;

t_1 – сутнинг бошланғич ҳарорати, 4°C .

$$Q = 2000 \cdot 0,92 \cdot 10^3 \cdot (10 - 4) = 11,04 \cdot 10^6 \text{ Ж}$$

2) Изоляция хисоби

$$k = \frac{Q}{F \cdot \Delta t \cdot \tau}, \frac{Bm}{m^2 \cdot ^\circ C}$$

Бу ерда, F – резервуар юзаси, $14,8 \text{ м}^2$;

Δt - ҳароратлар фарқи

$$\Delta t = \frac{t_1 + t_2}{2} = \frac{10 + 4}{2} = 7^0 C$$

τ - сақлаш З соат ёки 10800 секунд.

$$k = \frac{11,04 \cdot 10^6}{14,8 \cdot 7 \cdot 10800} = 9,87 \frac{Bm}{m^2 \cdot ^0 C}$$

3) Арапаштириш самарадорлиги

$$\beta = \frac{\Delta c_{yp}}{c_0} \cdot 100, \%$$

$$\beta = \frac{9,5}{10} \cdot 100 = 95\%$$

4) Унумдорликни аниқлаш

Унумдорлик қуидаги ифода орқали аниқланади:

$$V = \frac{V_m}{T \cdot 60}, m^3 / c$$

Бу ерда, V_m – резервуардаги сут ҳажми, $2,5 m^3$;

T – арапаштириш циклининг давомийлиги, 15 минут ёки 900 с

$$V = \frac{2,5}{900 \cdot 60} = 0,046 \cdot 10^{-3} m^3 / c$$

5) Иссиқлик юкламаси

$$q = \frac{Q}{F} = \frac{11,04 \cdot 10^6}{14,8} = 7,46 \cdot 10^5 \frac{Ж}{m^2}$$

4. Ускунага қўйиладиган асосий талаблар

Сут саноати корхоналари технологик ускуналарига, ҳамма турдаги озиқ-овқат ускуналарига тегишли умумий талаблар билан бирга маҳсус, яъни қайта ишланадиган хом ашёнинг ҳусусиятларига қараб ҳамда ҳавфсизликни таъминловчи талаблар қўйилади.

Сут корхоналари технологик ускуналарига қўйиладиган умумий талабларга, керак даражадаги қуввати, материал ва энергиянинг минимал сарфланиши, меҳнат ҳажми ва фойдаланиш ҳавфсизлиги, ишлаб чиқариладиган маҳсулот сифати, ремонт қилиш имкони, ишончлилиги, узок муддатлилиги, экологик ҳавфсизлиги киради.

Сут хом-ашёсини қайта ишловчи технологик ускуналарнинг ўзига хослиги—бу унинг конструкциясига қўйиладиган юқори даражадаги санитария талаблари. Технологик ускуналарнинг иш органлари конструкцияси шундай бажарилган бўлиши керакки, эксплуатация шароити бузилган нокулай шароитда ҳам мойловчи ёғлар, занг ёки металл чанглари ва бошқа ёт материаллар ва предметлар иш зонасига тушиб қолиш эҳтимоли бўймасин.

Технологик ускуналар конструкцион материаллари озиқ-овқат маҳсулотлари билан контактда бўлганда, маҳсулотни ифлослантирмайдиган ва сифатини туширмайдиган бўлиши лозим. Иш зонасида қўрғошиндан, цинқдан, мисдан, уларнинг қотишмаларидан ясалган деталлардан фойдаланиш ҳамда кадмий, никель, хром, эмал, пенопластлар, формальдегид асосида тайёрланган пластмассалар, такибида ойна толаси (стекловолокно) бўлган материаллар, асбест керамикадан, шишадан ясалган қисмлар қопланишлар ёрдамида қўлланилиши ман этилади.

Фойдаланиладиган материаллар ускуналарни сурункали ювиш, тозалаш ва дезинфекциялар жараёнларидағи кимёвий, иссиқлик ва механик таъсирларга бардош бера оладиган бўлиши лозим. Конструкцион материалларнинг иш зонасидаги ранги озиқ-овқат маҳсулоти сифатини аниқлашга ва тозалигини назорат қилиб туришга ҳалал бермаслиги керак.

Металлоконструкциялар (рамалар, станица, боғловчи ва бошқалар) ясаш учун қирқим бўйича ёпиқ шаклдаги профиллардан фойдаланиш лозим.

Ускуналар конструкцияси маҳсулотни ташки мухитдан ифлосланишдан ҳимоя қила олиши керак, маҳсулотни ёки ёрдамчи материалларни атрофга сочилиш эҳтимолини олдини олиш, ускунанинг тўла бўшатилиши ва сифатли тозаланиши, маҳсулот қолдиқлари қолиб чириши жараёнини олдини олиш имконларини бериши керак. Ҳамма ёғи санитар ишлови бериш ва уни назорат қилиш учун қулай бўлиши шарт.

Маҳсулотга ишлов бериш зонаси конструкциясида, агар технологик талабларга асосан кўзда тутилмаган бўлса, ювилмайдиган жойлар, тор чўнтаксимон чуқурлар, ёриқлар, тўсиқлар, зиначалар (ступенка), кескин торайган кесимли жойлар бўлмаслиги керак. Жумладан ванналар, металл идишлар ва қисмлар осон ювиб тозаланадиган силлиқ, тозалашни қийинлаштирадиган, ҳалақит берадиган дўнглик, тор оралиқлар, деталларсиз юзага эга бўлишлари лозим.

Ёпиқ тизимда санитар ишлови(безразборная мойка) беришга мўлжалланган маҳсулот зонаси конструкцияси, вақти – вақтида ечилиб қўл

билин ювиб тозалаш ва назорат қилиш имконини бера оладиган бўлиши керак. Ечиладиган ва йифиладиган қисмлар ва деталлар осон бўлинадиган бириктирувчилар билан жиҳозланган бўлиши лозим.

Ускунанинг маҳсулот зонасида заклепка, болтлар, нуқтали пайвандлаш, бир-бирига кийдирилиб маҳкамланган боғланишлар қўлланиши ман этилади. Юзалар уланган жойи ва бурчак қирралари 6 мм дан кўпроқ радиус бўйича, механик ювиш қўлланилганда 50 мм дан кам бўлмаган радиусда бажарилган бўлиши лозим. Ускунадан чиқсан оқава сувлар тўкиладиган қувурлар канализация тизимига сифонлар ёрдамида ёпиқ ҳолда уланган бўлиши керак. Валларнинг зичлаб маҳкамланган мосламалари хомашё, ювиш воситаларининг узатиш механизмларига, мойловчи материалларнинг эса, маҳсулот зонасига тушиши холлари олдини олиш шарт. Ускунанинг жойлашиши, унинг қувурлар билан уланиши, канализацияга боғланиши санитар ишлов бериш ва назорат қилишга тўсқинлик бермаслиги лозим. Арматуралар жойлашуви ва қувурлар уланган ерлари маҳсулотга бошқа нарсалар (гидравлик ёғ, совутиш суюқликлари ва х.к) оқиб тушиб ифлослантириши ва ускунага санитар ишлов беришга халақит қилиши ҳолларига йўл қўймаслик керак.

Ускуна ташқариси изоляцияси атроф муҳитни ва маҳсулотни ифлослантирмайдиган, ҳароратни ўтказмайдиган материаллардан бажарилган бўлиши керак. Жумладан, ҳар қандай юзани стекловолокно ёки шлаковата таркибли материаллар қўллаб изоляция қилиш мумкин эмас.

ГОСТ 12.2.003 “Ишлаб чиқариш ускуналари. Ҳавфсизлик умумий талаблари” ишлаб чиқариш ускуналарига ҳавфсизлик талабларини белгилайди, жумладан конструкцияларга, уларни бошқарув органларига, ҳимоя воситаларига, ҳамда монтаж ва таъмирлаш ишлари, ишлаб чиқариш ускуналарини транспортировка қилиш ва сақлаш ҳусусиятлари билан белгиланадиган ҳавфсизлик талабларини. Ускуналар монтаж, эксплуатация, таъмирлаш, транспортировка ва сақлашда ҳавфсиз бўлишлари, ташқи муҳитни ўрнатилган меъёрдан ортиқ заҳарли моддалар чиқариб

ифлослантирмаслиги керак. Ускуналар ҳавфсизлиги фаолият принципини, конструктив схемаларни, ҳавфсиз конструкцион элементларни танлаш ва х.к., механизациялар, автоматлаштириш, дистанцион бошқариш ва ҳимоя воситаларини қўллаш ёрдамида; эргономика талабларини бажариш билан; техник хужжатлар таркибига монтаж, эксплуатация, таъмирлаш, транспортировка қилиш ва сақлаш жараёнларидаги ҳавфсизлик талабларини киритиш билан таъминланади. Ускуналар ёнгин ва портлашдан ҳавфсиз, юқори намликка, ҳарорат ва босим ҳзгаришига, агрессив моддалар таъсирига, шамол кучига, музлашга чидамли бўлиши керак.

Ускунанинг харакатланувчи қисмлари – сидирувчи, валларнинг учлари ва уларнинг элементлари (винтлар, шпонкалар), валиклар, роликлар, очик узаткичлар, конвейер тасмаси қайрилган еридаги барабан ёnlари, пайвандланган жойлар, маҳсулот солиш бункерлари(воронка) – тўсиқлар ёрдамида ўралган бўлиши лозим. Тишли узатмаларнинг бутунлай маҳкамлаб ташланмаган тўсиқлари (болтлар, винтлар ва х.к.) машина тўла тўхтагандан сўнг очиш имконини берадиган ёки тўла ёпилганда машина ишга туша оладиган мослама билан жиҳозланган бўлиши керак.

Ишчи хизматчилар иш зонаси механизмлар, хом ашё ва тайёр маҳсулотлар характеристланиш зонасидан ташқарида бўлиши керак.

Ускуналар конструкциясида конвекцион ва нурли иссиқлик (лучостого тепла) ажралиб чиқишини чегаралаш чораларини кўриш имконини бериши лозим (теплоизоляция). Белгиланган жойни совутадиган машиналарда, совутиш агенти (хладоноситель) йўқ бўлганда машинани ишга тушишини блокировкаловчи мослама ўрнатилган бўлиши лозим.

Намлик, газлар чанг ва ёт хидларни ажратиб чиқарувчи ускуналар максимал равишда герметик ёпилган бўлиши керак.

Герметик етарлича бўлмаса, вентиляцион тизим ёрдамида ҳавони хайдашни таъминлаш лозим.

Ускуна ташқи қисмидаги бўртиқ қисмлари 5 мм дан катта радиусда юмалоқланган бўлиши керак. Ишлаб чиқариш ускунасини ишга тушириш кнопкаси коробка корпусидан 3 – 5 мм чуқурликда ўрнатилган бўлиши керак.

Доимий иш жойидаги бошқарув органлари (кнопкалар, қўлушлагичлар, маховиклар ва х.к.) қўйидагича чегараланган иш зонасида жойлашган бўлиши керак: узунасига 0,7 м гача, 0,4 м гача чуқурликда, 0,6 м гача баландликда. Кўрсатилган бошқариш органлари пол юзасидан (площадкадан) 0,9–1,5 м тик туриб бошқарилганда ва 06–1,2 ўтириб бошқарилганда баландликда бўлиши керак. Барча қўлушлагичлар, кнопкалар, маховиклар ва бошқа бошқариш органлари уларнинг функционал вазифаларини билдирадиган белгилар ёки ёзувларга эга бўлишлари ҳамда мос рангларга бўялган бўлишлари лозим:

Қизил – тўхташ;

Ахроматик (қора, кулранг ёки оқ), баъзида яшил – ишга тушириш;

Сариқ – аввррия холатида ишга тушириш;

Ахроматик ёки кўк – маҳсус уланиш.

Юқорида жойлашган машина ва ускуналарга хизмат кўрсатиш майдонлари тўсиқлар ва зиналар (қўлушлагичлари билан) билан жихозланган бўлиши керак, ҳамда 0,7 м дан кам бўлмаган ўтиш йўлкачаларига эга бўлиши лозим.

Майдончалар юзаси сирпанчиқ бўлмаслиги ва чекка қисмлари 0,15 м баландликда бўлиши керак. Тўсиқлар ва перилалар баландлиги 1 м дан кам бўлмаслиги, майдончаси (зина) юзасидан 0,5–0,6 м баландликда эса узунастга қўшимча тўсиқ ва ҳар 1,2 м дан узоқ бўлмаган оралиқда вертикал устунлар ўрнатилмоғи лозим. Зиналар 3–5 м баландликда ўтиш майдончалари билан жихозланган бўлиши керак; зина кенглиги – 0,6 м дан кам бўлмаслиги; босқичлар оралиғи – 0,2 м, босқич кенглиги – 0,12 м дан кам бўлмаслиги керак. 1,5 м дан баланд зиналар 45^0 дан кам бўлмаган қияликка, кам баландликдагилар – горизонтга нисбатан 60^0 гача қиялиқка эга бўлиши керак.

Ускуналарнинг оёқ ёрдамида бошқариш (педиллари) мосламалари тўсиқлар билан жихозланган ёки ускунанинг бехосдан тўхтаб қолиши олдини оладиган (бехос педал босилиши, бирор нарса тушиб кетиши), сақлагичлар (предохранитель) билан жихозланган бўлиши керак.

Педал тўсиғи мустахкам бўлиши, қирралари текисланган ва оёқ харакатига халил қилмайдиган бўлиши лозим. Педал юзаси тўғри ғадур–будур юзали ва боши юмалоқланган ва оёқни тираш учун тўсиқли бўлиши керак. Педал кенглиги 80 мм дан кам бўлмаслиги тираш тўсиғигача узунлик эса – 110 – 130 мм керак.

Педал майдон (пол) юзасидан 120 мм гача баландликда (ишга тушмасдан), босилиши 60 мм (ишга тушгач) ни ташкил қилиши; ўтириб бошқарганда педалга тушган кучланиш – 24,5 Н, тик турганда – 34,5 Н ни ташкил қилиши лозим.

Полдан 2 м баландликда ёки чуқурлиқда жойлашган задвижкалар, вентиллар ва кранлар иш жойидан туриб очиш ва ёпиш имконини берадиган мосламаларга эга бўлиши керак.

Иш жойларига ўрнатилган стационар назорат ўлчаш аппаратуралари полдан 2 м гача баландликда бўлиши керак.

Ускуналарининг ток ўтказувчи қисмлари ишончли қилиб электроизоляцияланган, тўсилган ёки одамлар тега олмайдиган жойларга бўлиши керак.

Технологик ускуналарга ўрнатилган электр аппаратлари, ҳада уларнинг ерга уланган симлари электрускуналари қурилмалари қоидалари талабларига жавоб бериши лозим.

Ускуналар юзасининг иш жойларидағи тўсиқ ва қувурларнинг қизиш даражаси 45°C дан ошмаслиги лозим. Ванна, баклар ва бошқа ишчи идишлар канализация тизими билан ёник усулда боғланган тўкиш, тошиб қуйилиш мосламалари ва ёпиб қўйиш мосламалари билан жихозланган бўлиши керак.

Босим остида ишлайдиган ускуналар (автоклавлар, стерилизаторлар ва б.) босим остида ишлайдиган идишларни эксплуатация қилиш хавфсизлиги ва тузилиш қонунларига асосан лойихаланади ва эксплуатация қилинади.

Бу қоидалар 0,07 Мпа дан ортиқ босимда ишлайдиган металл идишларга тегишли.

Идишлар конструкцияси ишончли, эксплуатация қилишда хавфсиз, күздан кечириш, санитар ишловчи ва таъмирлаш имконини берадиган бўлиши лозим. Ич қисмини күздан кечиришга халақит қиладиган ҳамма нарса олинадиган бўлиши керак. Ички диаметри 800 мм катта бўлган идишлар сони етарлича бўлган таъмирлаш ва кўздан кечириш тешикларига (туйнук) эга бўлишлари керакки, улар хизмат кўрсатиш учун қулай ерларда жойлашган бўлсин. Туйнуклар юмалоқ ва овал шаклда бўлади. айлана шаклдаги туйнуклар диаметри 400 мм дан кам бўлмаслиги, овал шаклдагилар кичик ўқи камида 325 мм, каттаси – 400 мм бўлиши керак. Қувурсимон иссиқлик алмаштиргичлар кўринишидаги идишлар люк ва туйнукларсиз ясалган бўлиши мумкин. Тўнтариладиган идишлар ўз–ўзидан тўнтарилиб кетиш олдини оладиган мосламаларга эга бўлиши керак. Идишлар таги одатда элиптик шаклда бўлади, лекин шар ёки шар сегменти кўринишида ҳам ясалган бўлиши мумкин. Идишларнинг пайвандланган ерлари факат бир – бирига нисбатан бир текисликда бажарилган бўлиши керак. Ҳар хил қалинликдаги элементлар пайвандланганда бир элементдан иккинчи элементга қирраларсиз, бир маромда ўтиши керак. Ўтиш юзаси қиялиги 15^0 ошмаслиги лозим.

Пайвандланадиган элементлар қалинлиги нисбати 30% дан кўп бўлмаса ва юпқа элемент қалинлиги 5 мм дан ортиқ бўлмаса, қалин элементларни юпқаламасдан пайвандлашга рухсат этилади.

Пастки қисми кўздан кечириш учун ноқулай бўлган горизонтал идишларда бўйича пайвандланган йўл 140^0 га тенг пастки қисмидаги марказий бурчакка тўғри келмаслиги лозим.

Туйнук ва люклар тешиклари пайвандлаш чокларига тұғри келмайдиган (жойларда) ерларда қурилиши жойлашган бўлиши керак.

Идишларни (сосудларни) тайёрлаш ва таъмирлаш учун босим остида ишлайдиган сосудлар таркиби ва хавфсизлик қонун ва қоидаларида келтирилган материаллардан фойдаланиш лозим.

5. Кичик корхоналар ускуналариға қуйиладиган талаблар

Кичик қувватли корхоналарда катта қувватга эга технологик ускуналардан фойдаланиш, максадга мувофиқ әмас, чунки улар қиммат нархга эга, уларни тұла қувватда эксплуатация қилишга хом ашё етишмайды.

Ҳар томонлама универсал (бажаридиган иши бўйича) ва кўпоперацияли ускуна қўллаш иқтисодий қулайдир. У осон ва тез ўзгартириладиган, арzon, ишончли ва кўп муддатли бўлиши лозим. Бундай ускунани агрегатлаш принципига асосан, умумий узатгичдан фойдаланиб, ҳар хил операцияларни бажарадиган ўзлаштириладиган ишчи органларига эга қилиб яратиш мумкин. Деталларни ва қисмлари (унифицированные) алмаштириладиган ва минимал ўлчамда бўлиши мумкин.

Ускуналарнинг кичик корхоналарда ишлаши учун, одатда, буғ, сиқилган ҳаво ва газ қўлланилмайди. Ускуналар ва кичик корхона фаолиятининг юқори самарадорлиги махаллий иссиқлик, сув, совуқлик билан таъминловчи манбаларга боғлиқ. Ишлаб чиқариш корхоналарини лойихалашда маҳсулотларни ва хом ашёни сақлаш учун табиий манбалардан фойдаланиш имкониятларини ҳисобга олиш керак. Кичик корхоналардаги ускуналарни эксплуатация қилиш учун маҳсус тайёрланган матахассислар – технологлар, механиклар, лаборантлар ва ишчилар талаб қилинади.

АТРОФ-МУҲИТ МУҲОФАЗАСИ

Ўзбекистон Республикаси экологик муаммолар экологик хавфсизлик асосий ўринлардан биринчини эгаллади. Экологик муаммолар ичидагилардан биринчи тасдиқи – бу экологияни таянади. Келажак авлод учун биз ортимиздан мусаффо осмон ва тоза (хаво) хаёт қолдирмиз керак. Замонавий ривожланиш босқичида маълум бўлдики Ўрта Осиё минтақасида изчил муаммоларни бир неча қуидаги фракцияларга бўлиши мумкин.

Биринчидан, ер муаммоси – бу шундай кўринадики чегараланганлиги ва унинг бир оз сифатга эгалиги. Ернинг (чегараланганлиги ва унинг) кўп майдони чўл зоналари эгаллади ва ярим (чўл) гул ердан иборат. Экология хавф соловчиомиллардан яна бири табиий мухитнинг ёмонлашув жараёни бўлиб, унда тупроқ эрозияси, ернинг шўрланиши ва ер сувларининг ифлосланишидир. Шу билан бирга сақлаш тамойилларининг бузилишидир.

Транспортлаш механизация ва турли кимёвий моддаларни ерга ишлатиш заарли ўғитлар, саноат ва қурилиш материалларининг оқибатида ернинг заарлантирилганлашига олиб келмоқда.

Иккинчидан, сувнинг сифати ва миқдорий ресурс муаммолари мавжуд бўлиб етишмовчилик холлари хам сезилмоқда. Бунда ер устки ва ости сувлари хам назарда тутилмоқда. Хозирги кунда ичимлик суви хам асосий муаммо бўлиб хисобланади. Шунинг учун ичимлик сувидан хам тежамкорлик билан жойланиши керак.

Учинчидан, об – хавони ифлосланиши муаммосидир. Атмосфера ташланаётган захарли газлар хавонинг ифлосланишига катта таъсир кўрсатмоқда. Хакр йили Республика хавоси тўрт минг тонна турли заарли моддалар билан захарланади. Улардан ярмисини углерод оксидлар ташкил қиласи.

15 % ни углеводородларни чиқиндилари,

14 % ни олтингугурт оксидлари,

8 % ни қаттиқ моддалар ва юқори токсин заарли моддалар ташкил қиласи. Бу моддалар атмосферага салбий таъсир кўрсатади.

Экологик муаммолардан яна бири бу орол муаммосидир.ол сувнинг қуриб туз микдори кўпайиб ерларни шўрланиши кундан кунга кучайиб бормоқда. Орол муаммоси хозирги кунда нафақат Ўзбекистоннинг қолаверса бутун Ўрта Осиё экологик муаммосига айланиб бормоқда.

Экологик муаммоларни ечиш учун Республикада атроф мухитни сақлаш ундан оқилона фойдаланиш ва табиий ресурслардан фойдаланиб келинмоқда.

Ишлаб чиқаришда сут корхоналарида ва озиқ-овқат заводларидан чиқаётган чанг газ ва оқова сувлар сув хавзаларигага тушиши корхона олди тупроқларни ёмонлашувига олиб келади. Сутни қайта ишлаш корхоналарида сув, пар камералари борлиги сабабли кўмир, мазут яъни табиий газда ишловчи маҳсус ёқилғилардан фойдаланилади.

Агарда ўчоқхонада кўмирдан фойдаланилса унда атмосферага углерод оксиidi, олtingугурт оксиidi ажралиб чиқади. Мазут ишлатилганда юқорида санаб ўтилганларга яна валодий оксиidi қўшилади.

Қолган қаттиқ қисмлари эса занг ва кукунлардан иборат бўлади. Табиий газни ёқилишида атмосферага фақатгина углевод билан заарланади.

Сув билан таъминлаш манбаи	Сувдан фойдаланиш меъёри, m ³ / соат		Айлна харакатдаги сувнинг хажми	Тоза сувни тежаш
Шахар сув таъминоти	Лойиха бўйича	Аслида	0,35	72
	0,9	0,5		

Сут маҳсулотларини тайёрлашда унчалик газ, чанг, тутун чиқмайди, факат зардоб ва қайта ишланган оқова сув хосил бўлади. Сутни қайта ишлаш корхоналаридаги хусусан кефир ишлаб чиқаришда ишлатиладиган сувларга бўлинади. Сутни қайта ишлаш корхоналаридаги хусусан кефир қолдиқларини, фиета ва ванна – танкларни резервуарни ювганда хосил

бўладиган оқова сувлардир. Ёғланмаган оқова сувларга ва аппаратларни ювганда ва цехни ичини ювганда хосил бўладиган оқова сувлар.

Оқова сувларни бундай бўлишида цех классификациясига хам боғлиқ.

Кефир ишлаб чиқариш цехидвги ишлатиладиган сув қуийдагига сарфланади. Усқуналарни ювишда $40-60 \text{ см}^3$ сувни қайта ишлаб сарфланса қолган $30-40 \text{ м}^3$ сув тоза сувни оқизиб ва асосий аппаратларни товишда майиший хизмат кўрсатиш жараёнрида ишлаб сарфланади.

Ушбу оқова сувларни механик аралашмалардан ва ёғ моддалардан (сарфлаш) тозалаш усули ёғ тутгичлардан тозаланиб, сўнг оқсил ва қолган бошқа аралашмалардан биологик усул билан тозаланади.

Тозаланга н сувни қайтадан цехга фойдалан иши учун терилади. Оқова сувларини нг турлари	Оқова сувларнинг хажми м^3 / соат $0,05 \text{ м}^3$ / соат		Ифлослик ларни тортиш	Тозалаш усуллари	Тозалагич ускуналар ва мосламала р	Тозаланг ан сув йўллари
	тозалана ётган	Ташлаб юборилаё тган				
Жихозлар ювиш	0,5	0,3	Ёғ хар хил оқсиллар	Механик биологик	Ёғ тутиш биологик хаво	Қайтади циклга беради

Сутни қайта ишловчи корхоналарда қаттиқ чиқинди хосил бўлмайди.

МЕХНАТ МУХОФАЗАСИ

Мехнат муҳофазасини яхшилаш давлатнинг муҳим вазифаларидан биридир. Бунинг учун фан ва техник ютуқларни тадбир этишга катта эътибор берилди. Натижада корхоналарда шикастланиш ва кассалланиш йилнинг маданий ва моддий турмуши яхшиланиб бормоқда. Бундан ташқари саноат озиқ-овқат корхоналарида нормал санитария-гигиена шароитларини яратиш, ўғир қашл иши билан бажарилади.

Мехнатни ошириш, саноатда харакатлана олиш натижасида мехнат қилиш фанини асосий вазифасидир. Инсон мехнатини мухофаза қилишни яхшилаш давлатимиз амалга оширилаётган олий ва муҳим оммавий вазифалардан биридир. Озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқаришни колхоналарида шроитни яхшилаш Республикализнинг асосий мақсадларидан биридир. Бизнинг сутни қайта ишлаш заводимиз санатория бўйича 5-чи синфга киради. Чунки озиқ-овқат ишлаб чиқариш корхонаси бўлгани сабабли физикавий фактор бу харакатланувчи машина ва механизмлар юқори чангланиш ва ишчи зона ҳавосини газланиш кабилар киради. Корхонани санитар ҳимоя запаси деганда жойланиш тартибга кўра унга қараб, ундан чиқаётган чанг заарли моддалар аҳоли саломатлиги учун таъсир бўлмайдиган жойга жойлашган. Сут корхона ҳимоя зонаси 50 метрдан кам бўлмаслиги керак, яъни СН- 245 – 71 СНИП – 201 – 02 – 96 амал қилинади. Касаллик захарланиши содир бўлмаслиги учун сонияни нормасида белгиланган йўл қўйилиши муҳим бўлган нет керак. «Тошкент сифат сут» заводида ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларни ишлаб чиқаришда сутни ахамияти катта. Шунинг учун заарли моддалардан ва иссиқлик таъсиридан ачиб бузилган бўлиши мумкин эмас. Асосан сутни лабораторияда ёғлилигини текширишда (H_2SO_4) суюлтирилган сульфат – кислота фойдаланилади. Бу модда маҳсулотга қўшилиб кетиши керак эмас. Буни ишлатиш фақат лаборатория хонасида олиб борилиши керак. Шу каби захарли инсон организмига салбий таъсир кўрсатадиган моддалар қўшилмаслиги керак. «Тошкент сифат сут» заводи тоғли районда жойлашганлиги сабабли бўлаётган шамол корхонадан чиқаётган газ, чангларни ахолидан зарарсиз томонга олиб ташлайди. Корхонанинг бош лойихасини қуришда қуриш норма ва қоидаларига асосан корхона жойлашган жойда шамол ёналиши ён и П – 2 – 09 – 02 – 85 га асосан хисобга олишган. Корхонани бош лойихасида шамолни ёналтириши хисобга олинган. Корхонада даврий усулда икки иш ташкил этилади.

Биринчи смкнада сутни қабул қилиш иккинчи сменада эса маҳсулот ишлаб чиқариш корхонада кўпгина маҳсулот ишлаб чиқариш корхонада кўпгина маҳсулот ишлаб чиқариш ускуналари автоматлаштирилган. Бу эса инсонни оғир меҳнатдан чарчашибдан заарли моддалар билан тўқнашишдан ҳалос этади. Ишчиларни меҳнатини енгиллаштириш мақсадида узокдан туриб бошқариладиган элакрис ва комплекс ускуналари қўлланилган. Корхонада янги замонавий технологиялар қўлланилган, бу технологик жараённи нормал ҳолатини ушлаб турадиган параметрлар ёрдамида аниқланади. Замонавий технологиялар иш режимини бир жойда туриб компьютерлаштирилган. Бошқариш пультида назоратдан ўтказиб борилади. Корхонада қўлланилаётган ускуналарни босим остида ишлайдиган компрессор, сепаратор ва пастеризаторларни хавфсизлигини таъминлаш мақсадида уларни автоматлаштирилган. Буни остида ишловчи компрессор қадоқловчи ускуналарни кичикроқ хажмдаги сепараторларни туриб бошқарилади, ускуналарни крехитлилигини таъминланган аппаратлар қизиган соғлиқларни совитувчи сув қабул билан таъминланган. Корхонада аппарат ускуна қурилмаларини тузатиш, созлаш учун нарвон маҳсус майдонга кўтариш крани ва бошқа зарур бўлган таъминлаш воситалари билан таъминланган.

Корхона ичидаги ишлайдиган сепараторлар компрессор ва насослар ўзидан шўвқин ва төвраниш ҳосил бўлади. Камайтириш мақсадида компрессорлар ва шовқин, тебраниш ҳам қилинадиган ускуналар алоҳида хоналарга жойлашган. Цех ичидагилари эса шовқинни камайтирадиган Эплофгор билан ўралган. Тебранишдан химоя қилиш учунэса ускуналарни сепарат ва пастеризаторлаш тагига резина асос юзасини тебранишини сотувчи резина хисобланади. Корхонадаги цех ичидаги шовқин 100г бўлиши керак.

«Тошкент сифат сут» заводида корхона ичидаги цехларни ёришиш жуда яхши ёлга вўйилган. Бунда асосан табиий ва сунъий ёритиши тизимларидан фойдаланилган корхонани асосий цехлардан бу лаборатория ва заповина тайёрловчи цехларидан бўлиб, бу цехлар сунъий ёритиши лампалари билан

жихозланган. Бу ерда хар хил замбуруғлар ачитқилар тайёрланади ва маҳсулот ишлаб чиқарилади ва ишлатилади. Асосий цех сунъий цехлар ва катта – катта ойнали деразалар билан жихозланган. Бу ерда ёруғлик жуда етарли ва қурилиш қоида ва нормаларга асосан СНиП – 2.06.05.08 қабул қилинган. Корхонада меҳнат шароитини яхшилаш мақсадида корхонада шамоллатиш ва кесиш мосламалари қўллқнилади. Корхонадан иш бошлашдан олдин ишлатиш қурилмалар ишга еуширилади. Бу эса цех ичидағи ҳавони тозалашда ва санитария – гигиена талабларигакўра тўлиқ риоя қилишда муҳим ахамият касб этади. Корхона ичидаги хизматчилар доимо бўладиган ишлаб чиқариш биноларини маълум ҳароратда ушлаб ткриш учун иситиш қурилмалари ўрнатилган. Бу иситиш қурилмалари малказлашган ҳолда бўлиб, пар ва иссиқ сув билан амалгаоширилади. Корхонани ишлатиш сапин – 00 58 – 96 га асосан олиб борилган ва лойихалаштирилган. Корхоналарда ишчиларни электр токидан шикастланишнинг олдини олиш химоялаш мақсадида воситахоналарда ҳимоя воситаларидан фойдаланилади.

Ишчилар эса маҳсус воситалар ва анжомлар билан таъминланган электр тошдан шикастланишнинг олдини олиш ва огоҳлантиришда цехда ерга уловчи ҳимоя симлари жойлаштирилган. Бу симлар ерга якка ҳолда метри 8-10 мм бўлган янги ушов мешни орқали зах ва пастроқ жойга қоқилган, диаметри 50мм бўлган қувур узунлиги 3-метр бўлган бурчакли пўлат восита билан боғланган.

Ишчиларни электр токи ёрдамида шикастланишдан ҳимоя қилиш учун ишлаб чиқариш шароитида хавфсиз ҳисобланади. Бу эса ишчиларни янада иш суратини оширишда ёрдам беради. Озиқ-овқат ишлаб чиқариш саноати корхоналарида асосий ва қўшимча технологик жараёнлари амалга оширувчи (технологик) барча ишюорар шахсий хамма воситаларидаги фойдаланиладилар.

Сут ва сут маҳсулотларини қайта ишловчи даврда ҳам ишлаб чиқариш жараёнида қатнашувчи ишчилар оқ халат резина қалин қўлқоп ва қалпок киядилар. Корхонада яна бажариладиган ишнинг тезлигига қараб маҳсус

кастюм ва қолқоплар диметрик пойондоз күпинча мис етарли ишлатилади. Корхонада нам ва захдан ҳимояланади. Ҳар бир саноат корхонада дам олиш овқатланиш, уст ва иш кийимларини ювиш ва бошқа маъданий санатория хизматларига мўлжалланган қўшимча бинолар бўлиши керак. «Тошкент сифат сут» сутини қайта ишлаш корхонасида ҳам санитар майиший хизмат кўрсатиш мавжуд.

Бу майиший хизмат кўрсатиш хоналари СНи П – 2 04 – 04 – 87 ва СНИП – 2. 04. 02 – 85 га асосан лойихалаштириб қурилган СНи П – 2.01.02 – 85 га асосан қўлланиладиган модда ва материалларнинг ёнгин портлаш ҳавфсизлиги кўрсаткичлари бўйича бизнинг корхонамиз “В” категориядаги биноан ёнадиган, қийин ёнадиган суюқликларни, қаттиқ ёнадиган хаво аралашмалари таралар қийин ёнадиган материаллар ва моддалар ишлатиладиган корхона ва хоналар киради. Бу корхона хоналари ёнгин портлаш В – 1а – синфга киради. В – 1а синфга нормал иш жараёнида портрайдиган аралашмалар хосил бўлмайдиган фақат авария ёки носозлик сабаблари портлаш бўйича бинолар запаси таъмирланади. Бино иншоотларининг ўтган ва ҳавфсизлиги уларни ўта чидамлилиги – даражаси билан аниқланади. Ўтга чидамли бино димикларлиги ёпувчанлик хусусиятига боғлиқ. Корхонадаги қурилиш – материаллари ва конструкциялари ёпувчанлик бўйича ер гурухга бўлинган, яъни ёнмайдиган, кийим ёнадиган хиллари мавжуд. Бу корхона материаллари темир – бетон, эшик, шифор ва кафеллар билан қуриладиган цехни ичи асосан мармар ва яхлит кафель бўлганлиги билан жихозланган. Ўтга жидамли бўйича, юқори ҳарорат ёки ун манбаси иштирокида ёнадиган, териладиган қийин ёнадиган материаллардир. Ҳар бир ишлаб чиқариш корхонасига бўлгани каби ёнгиндан, портлашдан содир бўладиган авариялардаги сезонларни бошқа ҳавфсиз жойга чиқариш учун чиқиши эвакуация йўллари бўлади. Бу эвакуация йўллари эшик йўлаклар бўлади. Бизнинг корхонамиз хоналари 60 минг куб метрдан иборат, кўпроқ бўлгани учун ва В – 1а ёнида ўтга чидамлилиги даражаси бўйича В натижасига тегишли бўлгани учун корхона эвакуация

йўли азам оқимига кўра 2000 м³ қилиб белгиланган. Корхона ёнғинга қарши сув билан таъминланган. Корхона ховлисида хажми 20 тоннага мўлжалланган ховуз жойлашган. Корхона ичидаги ва ёнғинга қарши биринчи ўт ўчириш мосламалари билан жихозланган. Корхона ичидаги ва ёнғинга қарши биринчи ўт ўчириш мосламалари билан жихозланган. Бу ишончли узунлиги 25 см дан иборат.

Ховуздан сув насослар орқали корхонага автоматик равишда узатиб борилади. Корхонада содир бўлган ёнгинни чеклаш, бартараф этиш, уни олдини олиш, ёнгинни тўхтатиш керак. Бунинг учун бирламчи ўт ўчиргич воситаларидан фойдаланилади. Корхона ўт ўчириш воситалари, қўлда ишлатиладиган ўт ўчиргичлар ОХП-10, ОП-5, ОП-1а пер, гидротурлар, челок сувни бочка, белкурак, қумни яшик, ёнмайдиган ва бошқалар билан жихозланган. Ёнгин фракциялари ва алоқа ҳар бир корхонадаги СН и П-2.04. – 84 га асосан ёнгин ҳақида тезда хабар бериш учун ўрнатилади. Ёнгин даражалари ёнгин содир бўлган жойни аниқлаб ўт ўчириб бўлимини чиқаради. Шунингдек, ёнгинни ўчириш вақтида бошқариш аниқ раҳбарликни ўюштириб ходим сони бартараф этишда катта аҳамиятга эгадир. Бу алоқа воситалари ҳисобга олиш ва маълумот бериш турига қараб тутун иссиқлик покланиш тури таъсирида ишлайдиган даракчиларга бўлинади. Бу даракчилар керакли жойларга ўрнатилади. «Тошкент сифат сут» корхонасида ишчиларни хавфсизлигини таъминлаш, ёнгин ҳақида ўз вақтида хабар бериш ва ёнгинни олдини олиш мақсадида саноат корхоналарида биринчи ва иккинчи таъсири натижасида содир бўладиган ёнгин портлаш бузилиш каби ҳодисаларининг олдини олиш мақсадида СНиП - 2 – 01 – 02 85 га асосан муҳим тадбир чоралар кўрилган.

ФУҚАРО МУҲОФАЗАСИ

Республикамиз Президенти Ислом Каримов «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари» асарида умумий хавфсизликни ва барқарор ривожланишни таъминлаш муаммоларини батафсил очиб бериб, табиат ва жамият ўртасидаги мувозанатни сақлаш ва уни бошқаришда амалга оширилиши лозим бўладиган ишларга оқилона ёндошишни қайта —қайта таъкидлаб ўтган.

Шунинг учун фуқаро муҳофазаси ва уни бошқаришга алоҳида эътибор бериш муҳим аҳамият касб этади.

Фуқаро муҳофазасига Вазирлар Махкамаси умумий раҳбарлик қиласи. У Фуқаро муҳофазасига оид вазифаларнинг бажарилишини таъминловчи тадбирлар ҳажмини ва ўтказилиш муддатини белгилаб беради. Раҳбарлик функциясини хукумат Фавқулодда Вазиятлар Вазирлиги (ФВВ) орқали амалга оширади.

Фуқаро муҳофазасига фавқулодда вазиятлар (ФВ) дан муҳофаза қилиш бўйича маҳсус ваколатли орган Фавқулодда вазиятлар вазирлиги (ФВВ) бевосита раҳбарлик қиласи.

3.Объектдаги фуқаро муҳофазаси бўйича қилинадиган ишлар (ВМнинг 143 фармони 11.04.96й. бўйича)

алоқа ва хабардор қилиш; жамоатчилик тартиби қўриқчилари; паналаниш ва бекиниш жойлари; радиация ва кимёвий захарланишга қарши ҳимоя; ёнғинга қарши; авария техник; тиббий; автомобил хизмати; моддий техник таъминот; электр таъминоти ва ёруғлик никоби;

Бундан ташқари жойларда бошқа хизмат турлари, масалан, озиқ – овқат ва сувни, ҳайвонлар ва ўсимликларни ҳимоя қилиш. Хизмат турлари сонини жойларда Фуқаро муҳофазаси бошлиғи аниқлайди.

4.Корхонда мавжуд бўлганзахарли моддалар унинг миқдори, сақлаш холати, санитар зонанинг ўлчами

Давлат стандарти буйича саноат корхона чикиндилари захарлилиги ва ташки мухитга хавфлилиги билан турт гурухга булинади;

1) фавқулодда хавфли; 2) жуда хавфли; 3) уртacha хавфли; 4) кам хавфли;

Масалан, чикиндилар таркибидаги симоб, маргимуш, хром кургошинли азот, туз ва бошкалар узининг хавфлилиги билан 2 гурухга тугри келади.

Корхонада чикинди ахлатларида мис сульфати, миснинг шавел кислотаси тузлари, никелнинг хлорли тузи, кургошин оксиди ва бошкалар узининг киши соглигига заари буйича 3-гурухга тугри келади.

Чикиндиларда фосфатларни, марганец, рухнинг сульфат тузлари ва бошкалар хам хавфли заарали моддаларга, яъни 4-гурухга тегишлидир.

Корхона чикиндилари угит, курилиш материаллари ва баъзи бир маҳсулотларни тайёрлашда хом ашё сифатида ишлатилади. Саноат чикинди сувларини маълум нормада кишлок хужалиги экинларини сугориш учун ишлатса хам булади. Хулоса килиб айтганда, саноат корхоналаридан чикадиган чикиндиларни халк хужалигининг турли тармокларида ишлатиш мумкин, бу гигиеник ва иктисодий жихатдан катта ахамиятга эгадир.

Полигонга олиб келинадиган хар бир чикиндининг паспорти, техник характеристикиси, микдори, таркиби ва улар билан ишлаш техника хавфсизлигини бажариш йуриклари курсатилиши керак.

Полигонларни лойихалаш даврида унинг паспорти тузилади, унда тупрокнинг кимёвий таркиби, ер ости сувлари, атмосфера хавоси ва чикиндиларнинг таркибий кисми, микдори акс эттирилади. Полигон ишга тушгач вакти-вактида 3000 метр масофа радиусида унинг атмосфера хавосига, ер ости сувлари, усимликлар таркиби, полигон яқинидаги тупрок таркиби текшириб турилади.

Ута захарли чикиндилар - таркибидаги симоб, маргимуш, синиль кислотаси, сарик фосфор ва бошкалар бетонли ёки металл контейнерларда чукур ураларда кумилади, бунда 2-5 метрли калинликда лой тулдирилади, кейин усимлик устириш учун тортилади.

5. Бўлиши мумкин бўлган фавқулотда вазиятлар хақида

Ёнгин хавфи туғилганда ва содир бўлганда

- оқилона ва ўйлаб тез харакат қилишлари;

- ўт ўчириш хизматига хабар беришлари;

- мавжуд воситалар ёрдамида ёнгинни ўчиришга ҳаракат қилиш;
- одамларни қутқаришга ҳаракат қилишлари;
- ёнаётган одамга алангани устига қалин мато ташлаб ўчиришлари;
- тутунли хонада ерга эгилиб ҳаракат қилишлари;
- ёнгин кучайиб кетмаслиги учун эшик ва деразаларни очмасликлари;
- ёнаётган бинодан тезликда чиқиб, устига намланган чойшаб ташлаб олишлари;
- электр асбосбларидан чиққан ёнгинни ўчиришда, аввал уни ток манбаидан узиб қуишилари лозим:

Радиактив зарапаланиш...

- хабар бериш сиганалини эшитгач, хонадан ташқарига чиқмай, берилган ахборотни тинглашлари;
 - шахсий химоя воситалари ва бадани буткул ёпувчи кийимларни кийишилари;
 - эшик, дераза, тешикларни ёпишилари, совутиш ва иситиш тармоқларини ўчиришилари;
 - давлат органлари рухсатисиз хавфсиз жойдан чиқмасликлари;
 - бинодан ташқарыда бўлган холда, нафас олиш органларини намланган рўмолча билан ёпишилари, яқин ердаги бинога кириб радиацияга қарши пана жой ёки ертўлага жойлашишилари;
 - автомобилда бўлган холда, ойналарни ёпиб, винтеляцияни ўчиришилари;
 - Йод препаратлари ёки йодни 5 %ли эритмасини қабул қилишилари;
 - Давлат органлари қутқарувчилари кўрсатмалига амал қилишилари;
- Бинодан чиқишига рухсат берилган бўлса буюмлар, овқат ва сувга қўлларини текказмасликлари;
- Текширилган манбалар очиқ сув хавзаларидаги сувларни ичмасликлари;
 - қўлларини совунлаб ювишилари ва оғиз бўшлиқларини чайқашлари;
 - бинодан чиқишидан аввал кийимларни алмаштириш «ифлос» ларини ташқарыда қолдириш;
 - эвакуацияга тайёр туришилари;

-буюмларни дизактивация қилишлари ва санитария кўригидан ўтишлари шарт.

Кимёвий заарланишда...

-Дикқат барчага! Сигналини эшигтгач, саросимага тушмай, оқилона ва тез харакат қилишлари. Телевизор, радио, приёмникларни ёпишлари ҳамда

кимёвий заарланиш ва ахоли харакати тўғрисидаги ахборотни эшитишлари;

-Зудлик билан шахсий ҳимоя воситаларни кийишлари ва пана жойга беркинишлари;

-Панажой мавжуд бўлмаган холларда олган хабарга кўра харакат қилишлари;

-Эшик дераза дарчаларини ёпишлари, электр асбоблари ва газни ўчиришлари;

-Бинодан чиқишида кўрсатилган йўналиш бўйича ёки шамол йўналишига кўндаланг харакат қилишлари;

-Уйдан чиқиб кетишининг иложи бўлмаса, хонани ҳаво кирмайдиган қилиб, дераза, дарча, эшик, тешик тирқишилари дуд буронини лейкопластер, салафанлар билан зич ёпишлари;

-Кўчада бўлган ҳолларда оғиз бурин бўшлиқларини рўмолча билан ёпиб яқин ердаги бинога киришлари;

-Эвакуация тадбирлари ўтказиладиган бўлса энг зарур буюм ва хужжатларни олиб йиғилиш пунктларига боришлари;

-Кимёвий заҳарланиш майдонидан чиқилгандан сўнг устки кийимларни ечиб ташқарида қолдиришлари, баданин яхшилаб оқар сув остида совунлаб ювишлари, оғиз бўшлиқларини чайишлари;

-Кимёвий заарланиш хавфини бартараф этиш тўғрисидаги ахборотдан хабардор бўлишлари лозим бўлади;

6.Шахсий ҳимоя воситалари.

Шахсий ҳимоя воситалари фильтровчи ва ажратувчи противагазлар (газниқоблар), респираторлар ва терини ҳимояловчи воситалар (ҳимояловчи комплекс кийимлар, костюмлар, комбинзонлар ва бошқалар) га бўлинади. Буларнинг барчаси нафас аъзоларини, кўз ва тери қаватларини радиактив,

захарловчи моддалар ва бактериалогик воситалар таъсиридан сақлайди. Уларнинг ҳаммаси ўзининг ҳимоялаш хусусиятига кўра фильтровчи ва ажратувчиларга бўлинади. Фильтровчи воситаларнинг ҳимоялаш хусусияти ҳавони ҳимояловчи материаллар орқали ўтказишга асосланган бўлиб, унда ҳаво радиактив заҳарловчи моддалар ва бактериалогик воситалардан тозаланади. Ажратувчи воситаларнинг ҳимоялаш хусусияти одам организмини ташки мухитдан тўлиқ ажратишга қаратилган бўлади. Нафас олиш учун керак бўлган ҳаво пневматегон ёки пневматифор усулда ишлайдиган кислород аппаратлари ёрдамида олинган бўлади. Умумхарбий ҳимоя воситалари билан бутун ҳарбий қисмларнинг ҳарбий хизматчилари таъминланади.

Нафас аъзоларини ҳимояловчи воситаларга фильтровчи (умумхарбий, ПМГ, ПМГ-2, ШР, ГП-5, ДП-6, ДП-6М), ажратувчи (ИП-4, ИП-5) противогазлар (газниқоблар), респираторлар (Р-2, ШБ-1) ва қўл остида бўлган воситалар киради.

РШ-4 маркали умумхарбий фильтровчи противогаз (газниқоб). Бу противогазлар нафас аъзолари, кўз ва юзини заҳарловчи, радиактив моддалар ва бактериал воситалардан ҳимоя қилишнинг асосий воситаси бўлиб ҳисобланади. Бу противогазлар билан ҳарбий қўшинларнинг ҳарбий хизматлари таъминланади. Противогазлар (газниқоб) фильтровчи-ютувчи коробка, юз қисми ва халтачадан иборат.

Ажратувчи противогазлар.

Ажратувчи противогазлар нафас аъзоларини ташки ҳаводан тўлиқ изализация қиласди. Ажратувчи противогазларнинг хусусияти заҳарловчи моддаларнинг турига, радиактив ва бактериал воситаларнинг ҳаводаги концентрациясига боғлиқ эмас. Бундай противогазлар ҳаво таркибидаги ҳар қандай заҳарловчи модда ва уларнинг юқори концентрациясидан ҳимоялайди ва қўйидаги ҳолларда ишлатилади:

-ҳаво таркибида заҳарловчи ва зарарли моддаларнинг жуда юқори концентрацияси пайдо бўлганда;

-одатдаги фильтрловчи противогазлар ҳаво таркибидаги баъзи бир заҳарловчи ва зарарли моддаларни зарарсизлантира олмаган вақтда;
-ҳаво таркибидаги кислород қисман ёки тўлиқ бўлмагандага;
-сув тўсиқларидан ўтишда ёки сув остида иш бажаришда.

Ажратувчи противогазлар киши нафас аъзоларини ташқи мухитдан тўлиқ ажратишга асосланган бўлади, нафас олиш учун керак бўлган ҳаво пневматоген ёки пневматофор усулда ишлайдиган аппаратлар ёрдамида олинган бўлади. Пневматофор ажратувчи противогазларда, нафас учун олинган кислород балонларида сиқилган босимда бўлади, бундай аппаратларга КИП-5 киради. Пневматоген ажратувчи противогазларга ҳозирги вақтда ИП-4, ИП-5лар киради, бунда кислород кимёвий йўл билан олинади. Ажратувчи ИП-4 противогази қуруқлиқда ишлаш учун мўлжалланган. Бу аппарат юз қисмидан, регенератив патрондан, нафас халтаси ва ортиқча босимни чиқарувчи клапандан иборат. Ажратувчи ИП-5 провогази юз қисми, регенератив патрон, нафас халтаси (қопи), қўкрак фартуги ва ортиқча босимни чиқарувчи клапиндан иборат.

Шлем-ниқоб (ШИМ-М) корпус, кўзойнаклар узели, обтюратор боғлаш мосламалари ва шлем-ниқобга махкам қилиб ўрнатилган гофранган бириктирувчи найчадан иборат. Бириктирувчи найчанинг иккинчи учида эса кўчма гайка бўлиб, унинг ёрдамида найча нафас халтасига махкам қилиб уланади.

Регенератив патрон (РП-5) параллелепипед шаклида қилиб тайёрланган. Патроннинг юқори қисмидаги иккита ниппел уяси бор, булар ёрдамида улар нафас халтасига уланади. Ниппел уяси ўртасига дастак шаклида тайёрланган ишга солувчи мослама ўрнатилган, ишлатилмаган патронда ишга солувчи мослама планбалар қўйилган бўлади.

7. Ўзининг хуқуқи доирасида ташкиллаш:

-Фуқаро мухофазаси бўйича тадбирларни ўтказишни ташкил этиш ва режалаш;

-харбий даврда ўзининг барқарорлик шаклларини қўллаш бўйича тадбирларўтказиш;

- ҳарбий ҳаракатлар ёки шу ҳаракатлар оқибатида юзага келувчи хавфлардан ёки авария бўлганда, фалокат ва табиий оғатлардан ўзининг ишчиларини ҳимоя қилиш йўлларини ўргатишни амалга ошириш-маҳаллий хабарлаш тизимини қўллашни доимий тайёрлиги ҳолатини қўллаш ва барпо этиш;

- ишчиларнинг мажбуриятларини Фуқаро муҳофазаси доирасида зарур шарт - шароитларни барпо этиш;

-моддий - техник, тибиий ва бошқа воситалар заҳирасини барпо этиш.

8.Фавқулодда вазиятлар вақтида қутқарув ишлари

Эвакуация тадбирларни ўтказиш хусусиятлари қуйидагиларга қараб белгиланади.

-фавқулодда вазият манбайнинг тавсифи (туси).

-фавқулодда вазият манбайнинг таъсир кўрсатиш доираси, вақти (тавсифлари).

-Тарнспортда ва пиёда олиб чиқиладиган аҳолининг сони ва қамраб олиши;

-Тарнспорт воситаларининг мавжудлиги ва уларнинг имкониятлари.

-Эвакуация (аҳолини кўчириш) тадбирларининг ўтказиш вақти ва шошилинчлиги.

Эвакуация тадбирларни ўтказиш вақти ва муддатига қараб эвакуациянинг 2 турга ажратса бўлади.

1.Олдиндан ўтказиладиган эвакуациялар. 2.Шошилинч эвакуациялар.

Фавқулодда вазият ривожлана бориши ва ҳарбий ҳаракатларнинг тавсифига қараб, фавқулодда вазият юзага келган худуддан олиб чиқиладиган, аҳоли сонига қараб, эвакуация 3 хилда бўлади:

1. Чекланган эвакуациялар. 2. Махаллий эвакуациялар. 3. Минтақавий эвакуациялар.

Ер қимирлаганда (зилзила).

Аҳолини эвакуация қилиш маҳаллий ёхуд минтакавий тусда бўлиши мумкин. Эвакуацияни ўтказиш муддатлари йўл транспорт имкониятларига қараб белгиланади. Шикастланган жойлардан аҳолни эвакуация қилиш эвакуация қилинган аҳолини йиғилиш жойи йўлга кўйиб, бир босқичда, ишлаб чиқариш худудий принцип асосида амалга оширилади.

Радиактив заҳарланишда:

Бундай фавқулодда вазият аҳолини эвакуация қилиш маҳаллий, ёхуд минтақавий бўлиб, алоҳида болалар уйи психонервологик тиббиёт муассасалари, болалар ва ногиронлар уйларидан (интернатлардан) ташқари объектларда худудий принципга асосан амалга оширилади. Аҳолини моддий ва маданий бойликларни эвакуация қилиш 2 босқичда ўтказилади.

Кимёвий заҳарланиш:

Бевосита кимёвий хавфли объектлар (КХО) яқинида яшаб турган аҳоли вақт етмаслиги сабабли, одатда, хавфли худуддан олиб чиқилмай балки жисп ёпиладиган панажой ва хоналарга жойлаштириладилар ва нафас олиш йўлларини шахсий муҳофаза воситалари билан ҳимоя қилиш чоралари кўрилади. Аҳолининг қолган қисми амалда юзага келаётган шароитга қараб, энг қисқа муддатларда, асосан аралаш тартибда кўчирилади.

Халокатли ёнғин содир бўлганда.

Аҳолни эвакуация қилишни уюшқоқлик билан ўтказиш мақсадида таълимотнинг қуйидаги турлари режалаштирилади ва амалга оширилади: тиббиёт; жамоат тартибини сақлаш; транспорт; йўл харакати хавфсизлиги таъминлаш; мухандислик; моддий техникавий; алоқа ва хабар бериш; кузатув таъминотлари.

1. Г.В.Твердохлеб и др. «Технология молоко и молочных продуктов»
Москва ВО «Агропромиздат» 1991 г.
2. В.П.Притыко и др. «Машины и аппараты молочной промышленности». Москва «Пищевая промышленность» 1979 г.
3. П.В.Кученев «Молоко и молочные продукты». Москва
«Россельхозиздат», 1985 г.
4. Г.Н. Крусь, В.Г. Храмцов, З.В. Волокитина, С.В. Карпичев.
Технология молока и молочных продуктов. Москва «КолосС» 2007.
5. Z.M. Amonova. «Sut va sut mahsulotlari texnologiyasi asoslari». OO'Yu
bakalavriatura talabalari uchun darslik. –Toshkent: 2004, -440 b.
6. T.A. Ismoilov. «Sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari
jihozlari». KHK o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. –T.:2012. -260 b.
7. T.A. Ismoilov. «Sut va sut mahsulotlari texnologiya va texnikasi».
OO'Yu bakalavriatura talabalari uchun o'quv qo'llanma. –T.:2013. -300 b.